



# Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 29-avgust, № 178 (9073)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



Dunyo nigohi

## YANGI O'ZBEKISTON YANGI TAMADDUN BESHIGI BO'LISHGA QODIR

Mehmet Seyfettin EROL,  
Turkiyaning “Ankasam” tahlil markazi  
direktori, professor.

Bugun O'zbekiston o'z mustaqilligining 34 yilligini nishonlamoqda. Shu bilan birga, tamaddunlar Vatani bo'lgan ushbu qadim diyorning davlatchiligi asrlarga daxldor ekani hech kimga sir emas. Yaqinda azim Samarqandning yoshi 3000-yil deb aniqlangani – tarixiy haqiqat.

O'zbekiston bugun ana shu qadim ildlarlardan quvvat olib, taraqqiyot yo'lida olg'a ildamlamoqda. Shubhasiz, mazkur muvaffaqiyat ortidagi eng asosiy omil – tarixiy davlatchilik shuuriga asoslangan oqil siyosat. Bir mamlakatni o'ta qisqa fursatda mintaqaviy, qolaversa, global sahnaga olib chiqish mumkinligini O'zbekiston misolida yaqqol guvohi bo'lmoqdamiz. Bu jarayon ortida turgan kishi esa uchunchi Renessansni shior qilgan yangi O'zbekiston bunyodkori janob Shavkat Mirziyoyevdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev –  
xalqdan kuch olgan yetakchi

O'zbekistonga har safarimda hayratga tushaman: 8-9 yil avval janob Shavkat Mirziyoyevning hokimiyat tepasiga kelishi bilan boshlangan islohotlar shamoli tobora jadallashib borayotganini ko'raman. Eng asosiy, bu yangilanishlar ruhi bugun har bir davlat xizmatchisi faoliyatiga, hatto har bir fuqaroning ongu shuuriga singib ketgan.

O'zbekistonda bugun oddiy insonlarning ham ko'zida mamlakat yetakchisi boshlab bergan yangilanishning uchqunini ko'rasiz. Bu aslida yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi davlat va xalq birligi tamoyilining in'ikosi. Zero, “Inson qadri uchun” degan shior – Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatining asosini tashkil qiladi.

Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan dasturlar, mehnat muhojirlarini qo'llab-quvvatlashga mutlaqo yangicha yondashuv, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari vositasida muhtojlarni qo'llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy nozik qatlami bo'lgan nogironlari borlar va qarovsiz farzandlarga nisbatan g'amxo'rlikning yangi modeli – mazkur siyosatning amaliyotdagi aksi. Xalqning asl orzu-istaklariga asoslangan ushbu boshqaruv yondashuvi davlatning kuchiga kuch qo'shmoqda, mamlakat taraqqiyotiga yangi dinamizm bag'ishlamoqda.

Davlat boshqaruvida  
benazir namuna

Prezident Shavkat Mirziyoyevning xususiyati davlat boshqaruvida har bir sohani bevosita o'z nazoratida tutib, hech kimni loqaydlikka berilishga yo'l qo'ymasligidir. So'nggi 9 yilda mamlakatdagi ulkan o'zgarishlarning asosiy sababi ham shunda. Yangi O'zbekiston – yangiliklarga ochiq, bag'rikeng mamlakat. Dunyoning biror burchagida foydali yangilik bo'ldimi, uning aks sadosini ertasi kunyoq O'zbekistonda ham ko'rasiz. Toshkentni aylanan ekansiz, har kun biror yangilikka guvoh bo'lasiz. Toshkentdagi yangilikni Andijonda, Samarqandda, Buxoroda ham ko'rasiz. Qoraqalpog'istondagi imkoniyatlar ham hech qayerdagi kam emasligini kuzatasiz. Ochiq tan olib aytdim, ba'zi texnologiyalar va innovatsiyalar borasida Turkiyada ko'rmaganlarimni O'zbekistonda kuzatdim. Bu, nazarimda, Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining har bir sohadagi islohotchilik yondashuvining natijasidir.

Bizda Vatan boshlangay har uy, har xonadondan, “Otajon”, “Onajon”dan, jondan-da jonajondan. Toki urush-nizolar ketsin, deb bu jahondan, Tinch bo'lsin, deb bu olam sarkoru sardor bo'lsin, Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Transchegaraviydir bizda ezgu siyosat, Salkam qirq milliyonli xalq shu maqsadga kafolat. Dunyo turguncha tursin shu davlat sog'salomat, Topgan toju davlatning ustuvor, poydor bo'lsin, Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Muhtaram Prezident, Janobi Oliyarlari, Sizdan rozidir ming-ming o'zbek oilalari. Shahru kent qishloqlar – vohayu vodiylari – Elni ko'rib har dilda faxru iftixor bo'lsin, Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Sirojiddin SAYYID,  
O'zbekiston xalq shoiri,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

## AQSH BILAN O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH UCHUN KATTA SALOHİYAT MAVJUDLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-avgust kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidentining global sherikliklar bo'yicha maxsus vakili Paolo Zampollini qabul qildi.



AQSh ma'muriyati yuqori martabali vakili davlatimiz rahbariga Prezident Donald Trampning samimiy salomi va O'zbekiston mustaqilligi kuni munosabati bilan tabriklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari atroficha ko'rib chiqildi.

Turli darajalarda samarali aloqalar davom etayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Konstruktiv siyosiy muloqot rivojlanmoqda, faol parlamentlararo almashinuvlar amalga oshirilmoqda. O'tgan oyda Kongressda O'zbekiston kuni doirasidagi tadbirlar o'tkazildi, bu yil kuzda Kengaytirilgan strategik sheriklik muloqotining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tadi.

Xavfsizlik sohasida, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

AQSh an'anaviy ravishda O'zbekistonning muhim iqtisodiy hamkori hisoblanadi. 2024-yilda tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga ko'paydi. Loyihalar portfeli 11 milliard dollardan oshgan.

Joriy yil iyun oyida o'tkazilgan Toshkent investitsiya forumida AQShning 100 dan ortiq yetakchi kompaniyalari ishtirok etdi.

Mineral resurslar, aviatsiya, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi, raqamli texnologiyalar, moliya, innovatsiyalar, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surish uchun katta salohiyat mavjudligi qayd etildi.

“S5+1” formati doirasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish muhim ekani ta'kidlandi.

Bo'lajak muloqotlar va qo'shma tadbirlar rejasi ham ko'rib chiqildi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

## MILLIY ISTIQLOLIMIZNING ENG BUYUK MAQSADI – INSONGA E'TIBOR VA UNING QADRINI YUKSALTIRISHDIR

Nuriddin ISMOILOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Spikeri

Bugungi kunda Vatanimizning har bir go'shasida bayram shukhi hukm surmoqda. Mustaqillik bayrami yurtimizda kechayotgan ulkan o'zgarishlar, milliy taraqqiyot va xalqparvar islohotlarga uyg'un holda tantana qilinmoqda. Xalqimiz mamlakatimiz mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik shonli sanasini yuksak g'urur va ko'tarinki kayfiyat bilan nishonlamoqda.

Istiqlolga bag'ishlangan tadbirlar “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan bosh g'oya asosida tashkil etilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Mazkur g'oya yangi O'zbekiston taraqqiyotining mohiyatini, jahon hamjamiyatida ortib borayotgan obro'-e'tiborini, yurtimizda kechayotgan ulkan yangilanishlar va xalqimizning umummilliy intilishlarini yorqin ifodalamoqda.

Darhaqiqat, so'nggi to'qqiz yildagi keng ko'lami islohotlar

natijasida jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy manzarasi tubdan o'zgarib, yangi mazmun bilan boyimoqda. Aholining turmush darajasi sezilarli darajada oshmoqda. Inson manfaatlarini davlat siyosatida eng oliy qadriyat sifatida ustuvor o'rinni egalladi. Shu asosda Vatanimizning yorqin kelajagi uchun ham mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Prezidentimiz rahbarligida izchillik bilan amalga oshirilayotgan “O'zbekiston – 2030” strategiyasi milliy istiqlolni mustahkamlash,

barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, ilm-fan va madaniyat rivojini ta'minlash hamda mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada yuksaltirishda hal qiluvchi o'rinni tutaydi.

Xalqimiz xohish-irodasi bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonni inson qadri ulug'langan ijtimoiy davlatga aylantirishda mustahkam huquqiy asos bo'lmoqda.

Tez o'zgaruvchan xalqaro kun tartibi, oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan geosiyosiy realik, turli ziddiyat va nizolar, inqirozlar sharoitida mamlakatni barqaror taraqqiyot sari boshlash – juda katta siyosiy yetakchilik mahoratini talab etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ana shunday siyosiy lider sifatida bugun xalqaro miqyosda e'tirofga sazovor bo'lmoqda.

## ELI E'ZOZLANGAN YURT

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan Vatan taraqqiyotiga qo'shgan katta hissa uchun bir guruh yurtdoshlarimiz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Farmoniga muvofiq faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandi.

### Shukuh

Ular orasida ilm-fan, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, ammo bugun oramizda bo'lmagan bir guruh marhum olim va ijodkorlar ham bor.

Shuningdek, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat va san'at sohalarida fidokorona mehnat qilgan bir guruh yurtdoshlarimiz ham davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi.

Kuni kecha ushbu mukofotlar o'z egalariga, shuningdek, marhum ijodkorlarning farzandlari va oila a'zolariga yetkazildi.

\*\*\*  
O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila

Surur

## TOPGAN TOJU DAVLATING ABADIY POYDOR BO'LSIN

Men bir she'rilar boshladim – tonglar tongotar bo'lsin,  
Boshlagan har bir she'rim elimga mador bo'lsin,  
Topgan toju davlatning abadiy poydor bo'lsin,  
Davlatningni qutlashga davlatlar qator bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

To'lib-toshib kuylasam sel bo'ldi ko'ngillarim,  
She'rimning daryosiga tor keldi sohillarim,  
Jo'shqin sog'inchlarimga jo'r bo'ldi singillarim,  
Elim baxtiyor bo'lsin, yurtim barqaror bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

She'rilar ayta boshlasam avj, baland pardalarda,  
Ming-ming o'g'il-qizlarim qo'zg'aldi partalarda.  
Shu jonim sadqalar-da, shu jonim sadqalar-da!  
Yangi maktablaringga bor-budim nisor bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Men eski zamonlardan aytmayman, deb qasd qildim,  
Ham ko'hna armonlarga qaytmayman, deb qasd qildim.  
Shu she'rimga men shu gal shu ishlarni lafz qildim.  
Zamon – dorilamondir, mangu navbahor bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Bo'lar elning bolasi o'zi ma'lum bergaydir,  
Yuz ming o'smir dasturchi ilmu ulum bergaydir,  
Menday yuz ming shoirga bari ta'lim bergaydir.  
Zamonangdan aylanay, jiddu jahding bor bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Garvardda o'qiyasanni yoki Kembrijdami,  
Darrov bosib chiqardi chap-chaqqon gazetalar.  
Sayru gashtlar aylasang Porij yo Forishdami –  
Qayda bo'lsang ham ilming elingga darkor bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Biz shiddatli zamonda davronni o'zgartirdik,  
Zamon bizni, biz esa zamonni o'zgartirdik,  
Eng avvalo biz inson, insonni o'zgartirdik,  
O'zgariganing millatga g'urur bo'lsin, or bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Yangi O'zbekiston bu – Vatan tanho Vatandir,  
Inglizcha so'ylasam gar “New Uzbekistan”dir.  
Dovrug'ing bugun butun olamga taralgandir,  
Dushmanlaring abgoru do'stlaring bisyor bo'lsin,  
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

Shu davru davronimga men bitsam qasidalar,  
Darrov bosib chiqardi chap-chaqqon gazetalar.  
Uncha-muncha lashkar ham bizlarga hasad qilar,  
Gazetkim, askar kabi doim tap-tayyor bo'lsin,  
“Yangi O'zbekiston”ga omad doim yor bo'lsin.



ELI  
EʼZOZLANGAN  
YURT

Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, adabiyotshunos olim Alibek Rustamov (Alibek Rustamiy);

Oʻzbekiston Respublikasi xalq shoiri Muhammadjon Yusupov (Muhammad Yusuf)ning oila aʼzolariga topshirdi.

Xonadonlarga tashrif davomida ularning yaqinlariga Oʻzbekiston ilm-fani, adabiyoti va madaniyatini rivojlantirishga, jamiyatda mehr-oqibat, adolat hamda maʼnaviy yuksalish tamoyillarini qaror toptirishga qoʻshgan hissasi uchun chuqur hurmat va minnatdorlik bildirildi.

Oʻz navbatida, mukofotlanganlarning oila aʼzolari Oʻzbekiston Prezidentiga ushbu ulugʻ zotlarning mehnati va xizmatlari yuksak baholangani, mamlakatimizda avlodlar madaniyati hamda xotirasiga eʼtibor va gʻamxoʻrlik koʻrsatilayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Shuningdek, 28-avgust kuni Oliy Majlis Senatida yana bir guruh yurtdoshlarimizga davlat mukofotlarini topshirish tantanali marosimi boʻlib oʻtdi.

Maʼlumki, davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan Prezidentimizning tegishli Farmoniga asosan turli sohalarida samarali mehnati, mamlakat taraqqiyotiga qoʻshgan katta hissasi uchun bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva hamda Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan taqdirlanganlarga davlat mukofotlari va tegishli hujjatlarni topshirdi.

Soʻzga chiqqanlar taʼkidlaganidek, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar, yangilanish va bunyodkorlik jarayonlari natijasida xalqimiz farovonligi, yurt ravnaqi tobora yuksalib bormoqda. Bugungi kunda barcha sohadagi yutuqlar xalqimizning farovon hayotida oʻz ifodasini topmoqda.

Mukofotlanganlar davlatimiz rahbarining yuksak eʼtibori va ishonchi uchun oʻz minnatdorliklarini hamda yangi Oʻzbekiston taraqqiyoti yoʻlida yanada faollik bilan mehnat qilishga tayyor ekanliklarini ham bildirdi.

“Xalq soʻzi”.

YANGI OʻZBEKISTON YANGI  
TAMADDUN BESHIGI  
BOʻLISHGA QODIR

Dunyo va yangiliklar bilan hamnafaslik mamlakatning ichida ham yangi toʻlqinni yaratyapti. Yangi Oʻzbekistonning yangi avlodi boʻy koʻrsatmoqda. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan muvaffaqiyatlari buning yorqin ifodasidir. 2000 nafar yosh muhandis robot yigʻib, Ginnesning rekordlar kitobida Oʻzbekiston nomini qayd etgani, mamlakat yoshlari “TOP – 500”talikdagi oliygoʻhlariga kirish boʻyicha Markaziy Osiyoda 1-oʻrinni egallangani – bu sohadagi islohotlar samarasi, deb bilaman.

Mazkur yutuqlar sportda ham yaqqol namoyon boʻlmoqda. Yozgi Parij Olimpiya oʻyinlarida Oʻzbekistonning butun turki va musulmon mamlakatlar ichida eng yaxshi natija koʻrsatgani bejiz emasdi. Bu yozda esa futbol boʻyicha Oʻzbekiston milliy terma jamoasi Markaziy Osiyodan jahon chempionatiga chiqqan ilk jamoa boʻlgani esa muvaffaqiyatlar silsilasi aslo tasodif emasligini, uzoqni koʻzlab boshlangan maqsadli islohotlar natijasi ekanini isbotladi. Darvoqe, mazkur sport musobaqalaridagi gʻalabalarda oʻta muhim bir qirra kishini alohida taʼsirlantirdi. Gap oʻzbek sportchilarining zafarlarini qoʻshni mamlakatlardagi ixlosmandlar ham katta quvonch bilan qarshilagini, Oʻzbekiston jamoasiga muxlislik qilgani haqida. Bu aslida Shavkat Mirziyoyev bilan Markaziy Osiyoga kirib kelgan mutlaqo yangi bosqichning nishonasidir.

Markaziy Osiyoda yangi  
muhit

2016-yilda Oʻzbekistonda boʻlgan oʻzgarishlarni Markaziy Osiyo taqdiri jihatidan ham burilish nuqtasi, deb



hisoblayman. Z e r o , Prezident Sh a v k a t Mirziyoyevning m i n t a q a o b o d l i g i y oʻ l i d a g i x i z m a t l a r i

beqiyos. U, avvalo, davlatlar oʻrtasida mavjud chegaralararo nizolarga chek qoʻydi. Oʻzbekiston, Tojikiston va Qirgʻiziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi toʻgʻrisidagi shartnoma imzolangan kun – Prezident Shavkat Mirziyoyev intilgan uzoq yillik jarayonning natijasi boʻldi. Eng asosiysi, bu bitimga mintqa davlatlarining oʻzi erishdi. Tashqi kuchlarning vositachiligiga hojat qoldirilmadi.

Oʻzbekiston rahbari chegaralar masalasini hal qilish barobarida undan ham muhimroq ishning uddasidan chiqdi – xalqlar ongidagi psixologik toʻsiqlarni bartaraf etdi. Bugun oʻzbek sportchisiga qozoq va qirgʻiz ham muxlislik qilmoqda. Oʻzbekiston, Tojikiston va Qirgʻiziston 2031-yilgi Osiyo kubogini birgalikda oʻtkazish uchun ariza bergani ham Oʻzbekiston yetakchisi tashabbusining shirin mevasi sanaladi.

Yana bir gap, Oʻzbekistonga kelayotgan sayyohlar soni borasida qoʻshni Qirgʻiziston, Qozogʻiston va Tojikiston fuqarolari yetakchilik qilmoqda. Yaʼni chuqurroq eʼtibor qaratsila, Markaziy Osiyodagi hamjihatlik Oʻzbekistonga karrasiga manfaat keltiradi. 3 yil avval boshlangan Toshkent xalqaro investitsiya forumi allaqachon oʻz mintaqasidagi “Davos”ga aylanib ulgirdi. Samarqand tarixda boʻlgani kabi madaniy-maʼrifiy xalqaro tadbirlar markaziga aylangani Oʻzbekiston liderining oqilona

siyosati sabab Markaziy Osiyoda yaratilgan hamkorlik va hamjihatlik muhitining natijasi emasmi?

Mintaqadan jahon  
sahnasi sari

Oʻz mintaqasida yuksalib ishonchi geosiyosiy ishtirokchiga aylangan Oʻzbekistonning diplomatiya geografiyasi tobora kengaymoqda. Soʻnggi yillarda mamlakat oʻzining yaqin va uzoq xorijdagi anʼanaviy sheriklari bilan aloqalarni mustahkamlash barobarida yangi mintaqalarga ham kirib bormoqda. Ularning ichida farovon va investitsiyalarda katta hissa qoʻshayotgan Koʻrfaz arab mamlakatlarini alohida taʼkidlab oʻtish joiz. Yaqinda boʻlib oʻtgan lordaniya Podshohining Oʻzbekistonga tarixiy tashrifini ham bu doirada baholash zarur. Respublikaning Uzoq Sharq mamlakatlari bilan aloqalaridagi rivojlanish ham eʼtiborga molik. Qirgʻiziston orqali Xitoyga qurilayotgan temir yoʻl loyihasi, yaqinda Avazada boʻlib oʻtgan “Oʻzbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon” formatidagi sammit doirasida “Oʻrta koridor”dan samarali foydalanish kelishuvi Oʻzbekiston manfaatlariga xizmat qiladi.

Bu jarayon Yevroosiyoing yuragi boʻlgan Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan Oʻzbekistonni Sharq va Gʻarb oʻrtasidagi oltin halqaga aylantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Inchunin, oʻz xalqiga tayanib, uning qadimiy tarixidan kuch olib, olgʻa intilayotgan yangi Oʻzbekiston tarixda boʻlgani kabi takror yangi tamaddun beshigi boʻlishga qodir.

Oʻzbekiston mustaqilligining 34 yilligi muborak boʻlsin, Oʻzbekiston dunyo turguncha tursin!

“Dunyo” AA.  
Anqara

MADANIY DIPLOMATIYA,  
TAʼLIM VA GLOBAL  
HAMKORLIKDAGI  
YETAKCHILIK

*YUNESKO bosh direktorining birinchi oʻrinbosari Sin Syuy Oʻzbekiston davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz xalqiga oʻzining bayram qutlovini yoʻlladi:*

## Qutlov

– 1-sentyabr – Oʻzbekiston mustaqillik kuni bayrami munosabati bilan YUNESKO bosh direktori nomidan Oʻzbekiston xalqiga samimiy tabriklar va ezgu tilaklarni yoʻllayman.

Bu yil Oʻzbekiston uchun ham, YUNESKO uchun ham tarixiy yil boʻladi, chunki tashkilot Bosh konferensiyasi 1985-yildan beri birinchi marta Parijdan tashqarida oʻtkaziladi.

Ushbu muhim tadbirni Samarqand shahrida oʻtkazish toʻgʻrisidagi qaror Oʻzbekistonning madaniy diplomatiya, taʼlim sohasidagi islohotlar va global hamkorlikdagi yetakchi rolining xalqaro miqyosda eʼtirof etilishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Bosh konferensiyaning 43-sessiyasi oldidan shu yil 27-28-oktyabr kunlari Samarqand shahrida YUNESKoning 14-Yoshlar forumini oʻtkazish taklifi uchun Oʻzbekistondan minnatdormiz. Ushbu forum ilim oʻzgarishining ijtimoiy oqibatlarini va iqlimga adolatli oʻtish zarurligini



muhokama qilish uchun muhim platforma boʻlib, ayniqsa, yoshlarga eʼtibor beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va YUNESKO bosh direktori oʻrtasida shu yil 12-mart kuni Parijda boʻlib oʻtgan uchrashuvda Oʻzbekistonning tinchlik, bilim va barqaror rivojlanish tarafdori ekanligi yana bir bor tasdiqlandi.

Oʻz navbatida, hukumatimiz tashabbusi bilan Rubob yasash va chalish sanʼatining 2024-yil oxirida YUNESKoning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ roʻyxatiga kiritilgani bilan tabriklayman.

YUNESKO Oʻzbekistonning doimiy qoʻllab-quvvatlashini yuksak qadrlaydi va kelgusida yanada faol hamda samarali hamkorlikka umid qiladi.

Professor Shahid TASLIM:

YOSHLARGA OʻZBEK TILIDAN  
SABOQ BERAYOTGANIMDAN  
FAXRLANAMAN

*Jamiya Milliya Islomiya universiteti Chet tillar departamenti rahbari, professor Shahid Taslim Oʻzbekiston davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan xalqimizga oʻzining bayram tabriklarini izhor qildi:*

– Men butun oʻzbek xalqini, Oʻzbekistondagi barcha doʻstlarimni yaqinlashib kelayotgan Oʻzbekiston mustaqilligining 34 yilligi bilan samimiy tabriklayman.

Dunyodagi murakkab jarayonlarga qaramasdan 34 yillik davr Oʻzbekiston uchun taraqqiyot va mustahkamlanish yillari boʻldi.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni jahon hamjamiyati diqqat eʼtiborida turibdi. Mamlakat geografik nuqtayi nazardan dunyoning markaziy mintaqalaridan birida joylashgan. Uning faol tashqi siyosati xalqaro maydonda eʼtirof etilmoqda va xorij davlatlari bilan serqirra aloqalar mazmunan boyib bormoqda.

Jumladan, Hindiston va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlar ham izchil rivojlanmoqda. Hindistonning juda koʻp kompaniyalari Oʻzbekistonda faoliyat yuritaypti. Shuningdek, xalqlarimiz oʻrtasidagi oʻzaro bordi-keldi munosabatlari sezilarli tarzda yuksalib bormoqda. Ayniqsa, turizm, ilm-fan, taʼlim va boshqa yoʻnalishlardagi rishtalar faollashayotir.

Universitetimiz talabalari boshqa chet tillar qatori oʻzbek tilini ham oʻrganish imkoniyatiga ega. Toʻrt yillik oʻquv kurslaridan keyin biz ularga diplom va sertifikatlar topshiramiz.

Men 2004-yildan beri universitetimizda talabalarga oʻzbek tilidan saboq berib kelayotganimdan mamnunman. Bundan tashqari, bir nechta darslik yozish va lugʻatlar tuzishga ham erishdim.

“Dunyo” AA.

## Mustaqillikning 34 yilligiga

KELAJAKKA  
QOʻYILGAN SARMOYA

1991-yil mamlakatimiz jahon hamjamiyati tomonidan rasman mustaqil davlat sifatida tan olindi va xalqimizning hayotida mutlaqo yangi, erkin va mustaqil taraqqiyot davri boshlandi.


Soʻnggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi mustaqillik gʻoyasini mazmunan boyitdi. Inson qadri, adolat va qonun ustuvorligi kabi tamoyillar asosida yangi davlat boshqaruvi modeli shakllantirildi, iqtisodiyot diversifikatsiya qilindi, infratuzilma yangilandi, taʼlim va sogʻliqni saqlash tizimi xalqaro standartlar asosida tubdan isloh etildi.

Maʼlumki, dunyoning rivojlangan davlatlari oʻz taraqqiyotini, birinchi navbatda, taʼlim tizimini rivojlantirish, zamonaviy bilim va texnologiyalarni joriy etish orqali taʼminlagan. Ushbu haqiqatni anglagan jadidlar harakatining yirik namoyandasi Abdulla Avloniy “Taʼlim yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat masalasidir”, deya aniq ifoda etgan.

Keyingi yillarda amalga oshirilgan ulkan institutsional islohotlar natijasida ushbu tizimda tub oʻzgarishlar yuz bermoqda. Xususan, oliy taʼlim sohasida kuzatilayotgan yangilanishlar mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh bilimlar va koʻnikmalar bilan taʼminlashda muhim poydevorga aylanmoqda.

Oliy taʼlim muassasalariga moliyaviy va akademik erkinliklar berilishi, ularning mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini oshirdi. Talabalar qamrovi yil sayin kengayib borayotgani, xorijiy oliy taʼlim muassasalari bilan qoʻshma dasturlar faol yoʻlga qoʻyilayotgani, taʼlim sifati xalqaro standartlar asosida baholanayotgani zamonaviy bilim bilan qurollangan yangi avlodni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi globalashuv jarayonida qolipda turib taraqqiyotga erishib boʻlmaydi. Shuning uchun ham taʼlim va fanning iqtisodiyot bilan



uzviy integratsiyasi ustuvor vazifaga aylandi. Ilgari soni kam boʻlgan, asosan, umumiy yoʻnalishda faoliyat yuritgan oliy taʼlim muassasalari oʻrnini endi sohalar boʻyicha ixtisoslashtirilgan, texnologik va ilmiy-innovatsion rivojlanishni taʼminlovchi zamonaviy universitetlar egallamoqda.

Oliy taʼlim muassasalari endi faqat diplom taqdim etuvchi tashkilot emas, balki amaliyot bilan chambarchas bogʻlangan, innovatsiya va ilmiy izlanishlarni ragʻbatlantiruvchi strategik markazlarga aylanib bormoqda. Ular nafaqat raqobatbardosh kadrlarni tayyorlaydi, balki intellektual mahsulotlar, ilmiy gʻoyalar va innovatsion yechimlarning manbaiga aylanmoqda.

Shu bilan birga, milliy taʼlim tizimi xalqaro taʼlim hamjamiyatiga toʻliq integratsiyalashmoqda. Xorijiy universitetlar bilan qoʻshma dasturlar amaliyotga joriy qilinishi, akademik mobillik kengayishi, professor-

oʻqituvchilar va talabalar almashinuvi yoʻlga qoʻyilishi bu jarayonning amaliy ifodasidir. Milliy universitetlar xalqaro nufuzli hamkorlarga aylanib, rektorlar forumlari, taʼlim sammitlari va akademik konferensiyalarda faol ishtirok etmoqda. Bu esa mamlakatning ilm-fan sohasidagi nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mustaqil taraqqiyotning mazmuni ham aynan shu, yaʼni oʻz resurslariga, bilim va innovatsiyaga tayana olgan jamiyatni barpo etishdir. Buning yorqin namunasini maktabgacha va oliy taʼlim qamrovida ham kuzatish mumkin. 2016-yilda 27 foizni tashkil etgan maktabgacha taʼlim qamrovi 2024-yilga kelib 76 foizga yetdi. Bu esa bolalarning erta rivojlanishi, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tarbiyalash va taʼlimga tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratdi.

Oliy taʼlim qamrovi esa 2016-yildagi 9 foizdan 2025 oʻquv yiliga kelib 43 foizga yetdi. Bu koʻrsatkich nafaqat taʼlim sohasida, balki umumiy maʼnaviy-maʼrifiy muhitda ham ulkan oʻzgarishlar yuz berayotganidan dalolat.

Taʼlim sohasidagi bu oʻzgarishlar mustaqillikning amaliy ifodasi. “Inson qadri uchun” tamoyilining hayotga izchil tatbiq etilayotganining yorqin ifodasidir. Yangi Oʻzbekiston sharoitida taʼlim endi faqat ichki ehtiyojlarni emas, balki global raqobatda munosib oʻrin egallashni koʻzda tutuvchi, kelajakni belgilaydigan strategik vositaga aylanmoqda.

Dilbar SUVONOVA,  
Oliy Majlis Senatining  
Fan, taʼlim va sogʻliqni  
saqlash masalalari qoʻmitasi  
aʼzosi.

## Senator va hayot

ZARKENTDA  
ANʼANAVIY  
“UZUM SAYLI”

*Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan hududlarda bayram tadbirlari keng nishonlanmoqda. Shu munosabat bilan Toshkent viloyati hokimligi tashabbusi bilan Parkent tumanining Zarkent qishlogʻida anʼanaviy “Uzum sayli” festivali boʻlib oʻtdi.*

Unda Oliy Majlis Senati aʼzolari ham faol ishtirok etdi. Ular tadbir doirasida tashkillashtirilgan koʻrgazma va pavilyonlar bilan tanishib, turli viloyatlardan kelgan tadbirkorlar, fermerlar hamda ishlab chiqaruvchilar bilan suhbatlashdi.

Jumladan, senatorlar Mahmudjon Toirov va Malika Qodirxonova tadbirkorlarning ish faoliyati, mahalliy mahsulotlarning eksport salohiyati, vinochilik va qishloq xoʻjaligi sohaslaridagi yutuqlari bilan yaqindan tanishdi. Ularni qoʻllab-quvvatlash, soha rivoji uchun zarur tashabbuslarni ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Ushbu yirik madaniy-iqtisodiy tadbirda mamlakatimizning 12 ta viloyatidan fermer xoʻjaliklari, vino zavodlari, tabiiy ichimliklar, sharbatlar va

sharbat konsentratlari ishlab chiqaruvchi korxonalar oʻz mahsulotlari bilan qatnashdi. Shuningdek, Toshkent viloyatining barcha shahar va tumanlari tomonidan koʻrgazma pavilyonlari tashkil etildi.

Festival doirasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlari koʻrgazma-yarmarkasi, milliy urf-odatlar namoyishi, gala-konsert va madaniy dasturlar, ilmiy-amaliy uchrashuvlar ham boʻlib oʻtdi. Xususan, kun davomida milliy liboslar koʻrgazmasi hamda uzum va undan tayyorlangan mahsulotlar auksioni tashkil qilindi. Oʻzbek milliy anʼanalarini aks ettiruvchi atlas va adras matolaridan tayyorlangan zamonaviy liboslar koʻrgazmasi ishtirokchilar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

“Xalq soʻzi”.



# MILLIY ISTIQLOLIMIZNING ENG BUYUK MAQSADI – INSONGA EʼTIBOR VA UNING QADRINI YUKSALTIRISHDIR

➡ Turli manfaatlar toʻqnashuvi sharoitida Oʻzbekiston Prezidentining vazmin, bir vaqtning oʻzida pragmatik siyosati, samarali va intensiv diplomatik muloqotlari, yuqori surʼatdagi faoliyati natijasida mamlakatimiz barcha sohada katta marralarni zabt etmoqda. Ijtimoiy davlat tamoyili asosida bunyodkorlik, ishlab chiqarish, sanoat, investitsiya, taʼlim kabi ustuvor yoʻnalishlarda muntazam oʻsish koʻrsatkichlariga erishilmoqda.

## Samarali iqtisodiy islohotlar – xalqimiz farovonligini taʼminlamogda

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar barqaror taraqqiyotning mustahkam asosini yaratgan. Aholi farovonligi oshmoqda. Shu maʼnoda, tadbirkorlik uchun qulay va barqaror shart-sharoitlar yaratish, biznes vakillari har tomonlama qoʻllab-quvvatlash orqali aholi turmush darajasini yuksaltirish – Prezident Shavkat Mirziyoyevning serqirra faoliyatida ustuvor yoʻnalishlardan sanaladi.

Prezidentimizning har yili ishbilamonlar bilan uchrashib, sohadagi dolzarb masalalarga yechim topish amaliyoti oʻz samarasini bermogda. Shu yil 20-avgust kuni boʻlib oʻtgan navbatdagi ochiq muloqot ham xususiy sektor rivojini ragʻbatlantirish orqali mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga koʻtarmoqda. Alohida eʼtirof etish kerakki, ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazaridan muhim hujjatlarni ishlab chiqishdan avval davlat rahbari, albatta, soha vakillari bilan uchrashadi. Farmon va qarorlar ochiq muloqotlar, maslahatlashuvlar asosida qabul qilinmogda. Bu mamlakatimiz yetakchisining oʻziga xos xalqchil va samarador boshqaruv uslubidir.

20-avgust kungi “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmon tadbirkorlikka oid yangi tashabbuslarni jadalik bilan hayotga tatbiq etish imkoniyatini kengaytirdi.

Shu maʼnoda, tadbirkorlar uchun zarur moliyaviy va infotuzilimaviy sharoitlar, tashqi iqtisodiy faoliyatda qulayliklar yaratish, turizm sohasini rivojlantirish dasturini joriy qilish, soliq toʻlovchilarni ragʻbatlantirish kabi muhim yoʻnalishlarda amalga oshiriladigan vazifalar alohida qayd etildi.

Prezidentimiz Investitsiya kodeksini ishlab chiqish taklifi berdi. Bu nihoyatda dolzarb, bugungi kun uchun juda muhim toʻgʻridan-toʻgʻri ishlaydigan yagona hujjat boʻladi. Mazkur qonunni qabul qilishda Qonunchilik palatasi, albatta, faollik koʻrsatadi.

Ochiq muloqotda koʻtarilgan dolzarb masalalar va bildirilgan tashabbuslarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, sohadagi huquqiy boʻshliqlarni toʻldirish, tadbirkorlarni oʻylantirayotgan masalalar yechimini qonunlarda aks ettirish boʻyicha parlament quyi palatasi tomonidan amalga oshiriladigan zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari va qoʻmitalarimiz tomonidan doimiy parlament va deputatlik nazorati oʻrnatiladi.

Umuman aytganda, ochiq muloqotda ilgari surilgan gʻoyalar va takliflarni, shuningdek, Prezidentimizning Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarni hayotga ichil tatbiq qilish Qonunchilik palatasi faoliyatining ustuvor yoʻnalishiga aylanadi. Bu esa iqtisodiy islohotlar samaradorligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Milliy parlamentarizm taraqqiyotining yangi davri

Oʻzbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlari aynan xalqimizning xohish-istagi bilan uygʻun holda amalga oshirilayotganini uchun ham muvaffaqiyatli kechmogda. 2024-yil 27-oktyabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablari asosida boʻlib oʻtgan mamlakatimiz parlamentli faoliyatida sifat bosqichini boshlab berdi. Davlatimiz rahbarining oʻtgan yil noyabr oyidagi yangi shakllangan parlament palatalarining majlislaridagi nutqlari Qonunchilik palatasiga oʻziga xos yondashuvlarni olib kirdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Oʻzbekistonni rivojlantirishning yangi siyosiy yoʻlida milliy parlamentarizm rivojiga katta eʼtibor qaratmogda. Bu boradagi tashabbuslari demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlisning rolini yanada kuchaytirishda muhim omil boʻlmogda.

Oʻtgan yil noyabr oyidagi yangi shakllangan parlament palatalarining majlislaridagi nutqlarining ahamiyati va mohiyatidan kelib chiqilib, mazkur nutq Oliy Majlis va xalqimizga navbatdagi Murojaatnoma sifatida qabul qilindi.

Ushbu tarixiy nutqlar parlament aʼzolariga taqdim etilgan juda boy va qimmatli dasturiy hujjat vazifasini oʻtamoqda.

Hozirda davlatimiz rahbari ilgari surgan gʻoyalar hayotga ichil tatbiq etilmogda.

Yangi shakllangan Qonunchilik palatasining ishini har tomonlama samarali tashkil qilishning barcha huquqiy, tashkiliy-amaliy chora-tadbirlari koʻrildi. Siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar faolligi oshmogda. Parlament nazorati tobora taʼsirchan boʻlib boryapti. Qonunchilik palatasi faoliyatiga yangi amaliyotlar joriy etilmogda.

Oʻtgan davrda qonun ijodkorligi jarayonini yanada takomillashtirishga alohida eʼtibor berildi. Jamiyatimizdagi dolzarb muammolarga huquqiy yechim topish, xalqchil qonunlar qabul qilish va qonun loyihalarining sifatini yaxshilash borasida ichil ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, kelgusi besh yilda yangi qonunlar ustida ishlashni belgilab olish maqsadida Oliy Majlis palatalari Kengashlarining Qoʻshma qarori bilan 2025 – 2029-yillarga moʻljallangan qonun ijodkorligi dasturi qabul qilindi.

Qonunchilik palatasi va hukumat oʻrtasidagi hamkorlikning yangicha tizimi

“**Tez oʻzgaruvchan xalqaro kun tartibi, oldindan bashorat qilib boʻlmaydigan geosiyosiy reallik, turli ziddiyat va nizolar, inqirozlar sharoitida mamlakatni barqaror taraqqiyot sari boshlash – juda katta siyosiy yetakchilik mahoratini talab qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ana shunday siyosiy lider sifatida bugun xalqaro miqyosda eʼtirofga sazovor boʻlmogda.**”

yoʻlga qoʻyildi. Unga koʻra, tegishli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari – vazirliklar, qoʻmitalar, agentliklar va inspeksiyalar quyi palata qoʻmitalariga birlashtirildi, ushbu masalalarga sohalar boʻyicha vazir oʻrinbosarlari masʼul etib belgilandi.

Parlamentimizda ilk bor Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qoʻmitasi tuzildi. Bu esa yurtimizda ishlabonmonlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Faoliyat yoʻnalishlaridan kelib chiqib, har bir qoʻmita tomonidan ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari ichil yoʻlga qoʻyildi.

Qonunchilik palatasi huzurida Jamoaviy tashabbuslar boʻyicha, Qonunchilik Jahon savdo tashkiloti bitimlariga uygʻunlashtirish boʻyicha, Iqlim oʻzgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga oʻtishni tezlashtirish masalalari boʻyicha parlament komissiyalari tuzildi. Shuningdek, Kambagʻallikni qisqartirish borasidagi ishlarining holatini oʻrganish boʻyicha ischi guruhi faoliyat boshladi.

Qonunchilik palatasi gʻoyalar generatori, sogʻlom raqobat, bahs va munozaralar maydoniga aylanmogda. Buni parlamentdagi koʻpchilikni tashkil etuvchi “Taraqqiyot bloki” hamda muxolifat fraksiyasi tuzilgani misolida ham yaqqol koʻrishimiz mumkin. Ushbu amaliyotlar parlamentda siyosiy xilmaxilik, masalalarni erkin va ochiq muhokama qilish kabi demokratik tamoyillar mustahkam oʻrin egallashini taʼminlamogda.

Oʻtgan davrda koʻrilgan choralar natijasida qonun ijodkorligi, parlament nazorati amalga oshirish, deputatlarning saylov okruglaridagi ishlarni yangicha shaklda samarali tashkil etish, murojaatlar bilan ishlash, xalqaro parlamentlararo hamkorlik aloqalarini rivojlantirish kabi yoʻnalishlaridagi ishlar yangi bosqichga koʻtarildi. Milliy parlamentarizm taraqqiyotining yangi davri boshlandi.

## Hayotiy va xalqchil qonunlarni qabul qilish – asosiy vazifa

Taʼkidlash joziyki, mamlakatimizdagi keng koʻlamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi koʻp jihatdan huquqiy tizimni jadall rivojlantirishga, qonun ijodkorligi jarayonining sifati bilan chambarchas bogʻliqdir.

Shu maʼnoda, Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, **“Qonun ijodkorligi jarayoni, avvalo, jamiyatimizdagi dolzarb muammolar yechimiga, xalqimizning ogʻirini yengil qilishga qaratilishi kerak”**.

Davlatimiz rahbarining ushbu tashabbusi juda muhim. Qonunchilik palatasi faoliyatida mazkur masala ustuvordir.

Qonun ijodkorligida ushbu jihatlariga alohida eʼtibor qaratildi. Toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiladigan qonunlar qabul qilinmogda.

2025 – 2029-yillarga moʻljallangan qonun ijodkorligi dasturida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ayni paytda bu borada faol saʼy-harakatlar olib borilmogda. Qonun loyihalarining sifatini taʼminlash maqsadida 67 ta ilmiy-tadqiqot instituti va tahlil markazi bilan memorandum imzolanib, hamkorlik rejalari tasdiqlandi.

Tashabbuskor subyektlar tomonidan qonunlar loyihalarini Qonunchilik palatasiga kiritish va koʻrib chiqish tartibi yanada takomillashtirildi. Bunda qonun loyihalarini quyi palataga kiritishda qonun loyihasingiz va xalqaro shartnoma matnining huquqiy ekspertizaci natijalari hamda qonun loyihasingiz korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

va jamoatchilik muhokamasi natijalarini taqdim etishga doir talablar belgilandi.

Qonunchilik tashabbusi huquqi subyektiga oʻzi kiritgan qonun loyihasi ikkinchi oʻqishda qabul qilinguniga qadar Qonunchilik palatasiga taklif kiritish orqali uni chaqirib olish huquqi berildi.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida Qonunchilik palatasi tomonidan jami 61 ta qonun (*86 ta qonun loyihasini oʻz ichiga olgan*) hamda maʼmuriy-hududiy tuzilishga oid 1 ta qaror qabul qilinib, maʼqullash uchun Senatga yuborildi. Taqqoslaydigan boʻlsak, 2024-yilning birinchi yarim yilligida bu koʻrsatkich 48 tani tashkil etgan.

Butun bir sohani tartibga soluvchi hajm jihatdan katta boʻlgan qator yaxlit qonunlar koʻrib chiqilib, qabul qilindi. Oʻzbekiston Respublikasining Suv kodeksi, “Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini taʼminlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi, “Banklarni sanatsiya qilish

va tugatish toʻgʻrisida”gi, “Davlat ijtimoiy sugʻurtasi toʻgʻrisida”gi, “Qishloq xoʻjaligi tavakkalchiliklarini sugʻurta qilish toʻgʻrisida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

Jumladan, “Kredit axboroti almashinuvi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi Qonun bilan jismoniy shaxslarning ularning xabarizis kredit bitimlarini tuzish uchun javobgarlik belgilandi. Yaʼni jismoniy shaxslar oʻzlari bilan kredit bitimlarini tuzishga doir taqib belgilash va uni olib tashlash huquqiga ega boʻldi.

“Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun bilan aholiga videokonferensaloqa rejimida oʻtkaziladigan sud majlislarida mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish imkoniyati yaratildi.

“Aholiga ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun bilan pensiya yoshiga toʻlgan fuqarolarga ularning murojaatisiz avtomatik tarzda (“proaktiv”) yoshga doir pensiya tayinlanadigan boʻldi.

Bugun norma ijodkorligini amalga oshirishda Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining oʻrni va roli ortib bormogda.

Yangi tarkibdagi Qonunchilik palatasi ish boshlashi bilan fraksiyalar oʻz partiyalarining saylovoldi dasturlarida belgilangan tashabbuslarni amalga oshirishga faol kirishdi. Ular bu maqsadlarni qonun loyihalari orqali hayotga tatbiq etishga ahamiyat qaratmogda.

Masalan, “Adolat” SDP fraksiyasi aʼzolari tashabbusi bilan “Aholining madaniy hordiq va dam olish maskanlari muhofazasi kuchaytirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilindi.

Mazkur hujjat bilan sayilgoh, xiyobon, bogʻ va daraxtzorlar hamda ulari joylashgan yerlarni xususiyashtirishni taqiqlash, shuningdek, bu hududlarda bino va inshootlar qurilishini cheklash orqali ushbu maskanlar muhofazasini kuchaytirish choralari belgilandi.

Qonun ijodkorligi faoliyatining har tomonlama kuchaytirilishi va takomillashtirib borilishi – muhim jarayon. Bu davrning oʻtkir talablariga javob beradigan, sifatl, xalqchil hamda amaliyotda samarali va toʻgʻridan-toʻgʻri ishlaydigan qonunlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilik palatasi ayni mana shu tamoyilni asosiy mezon sifatida belgilab olgan.

## Parlamentning taʼsirchan nazorati natija bermogda

Prezidentimiz oldingi chaqiriq davridagi tor doirali parlament nazoratidan endi keng koʻlamli, sifatl nazorat tizimiga oʻtish zarurligini taʼkidlagan edi.

Shu bois faoliyatimizning eng muhim yoʻnalishlaridan biri – ijro hokimiyati faoliyati ustidan taʼsirchan parlament nazoratini amalga oshirishga masʼullik bilan yondashilmogda. Bunda parlamentga berilgan vakolatlardan samarali foydalanilmogda.

Qayd etish kerak, parlament nazoratining eng muhim yoʻnalishlaridan biri mamlakatning bosh moliyaviy hujjati – Davlat byudjetining samarali bajarilishini taʼminlash, byudjet mablagʻlarining maqsadli sarflanishi ustidan taʼsirchan nazorat oʻrnatishdir.

Oʻtgan davrda Qonunchilik palatasining Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish mexanizmlari yanada kuchaytirildi. Xususan, hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotini quyi palataga faqat Byudjet kodeksida belgilangan audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyotini joriy etish nazarda tutilmogda.

Qonunchilik palatasi qoʻmitalarida har olti oyda birinchi darajali byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning byudjet mablagʻlaridan foydalanishi bilan bogʻliq maqsadli indikatorlari bajarilishi yuzasidan vazirliklar va idoralar rahbarlarining hisobotlari, har chorak yakunida Soliq, Bojxona qoʻmitalari va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Davlat byudjeti daromadlari prognozining bajarilishi toʻgʻrisidagi hisobotlarini eshitib borish yoʻlga qoʻyildi.

Ushbu Amaliyot Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishda qoʻmitalarning rolini yanada oshirishga, birinchi darajali byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning xarajatlari ustidan parlament nazoratini yanada kuchaytirishga xizmat qilmogda.

Yana bir muhim jihat – Vazirlar Mahkamasining Davlat byudjeti, davlat dasturlari ijrosi boʻyicha hisobotlarini, hukumat aʼzolligiga nomzodlarni koʻrib chiqish va maʼqullash, “Hukumat soati” instituti kabi muhim demokratik amaliyotlar parlament hayotida mustahkam oʻrin egalladi.

Bu saylovchilar tomonidan koʻtarilayotgan dolzarb masalalar yuzasidan davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotini koʻrib chiqish, odamlarni oʻylantirayotgan muammolar boʻyicha deputatlarning savollariga hukumat aʼzolarining javobini eshitish, davlat organlari rahbarlariga parlament va deputat soʻrovlarini yuborish singari parlament nazoratining taʼsirchan shakllari orqali amalga oshirildi.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida Qonunchilik palatasi qoʻmitalari majlislarida 17 ta vazirlik, 4 ta agentlik, 4 ta qoʻmita hamda 3 ta tashkilotning maqsadli indikatorlari bajarilishi holati haqidagi axborotlari eshitildi.

Palata majlislarida hukumat aʼzolarining deputatlar savollariga javoblarni eshitish – “Hukumat soati” instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanilmogda. Oʻtgan vaqt

“**Hozirda davlatimiz rahbari ilgari surgan gʻoyalar hayotga ichil tatbiq etilmogda. Yangi shakllangan Qonunchilik palatasining ishini har tomonlama samarali tashkil qilishning barcha huquqiy, tashkiliy-amaliy chora-tadbirlari koʻrildi. Siyosiy partiyalar fraksiyalari va deputatlar faolligi oshmogda. Parlament nazorati tobora taʼsirchan boʻlib boryapti. Qonunchilik palatasi faoliyatiga yangi amaliyotlar joriy etilmogda.**”

mobaynida 4 marotaba “Hukumat soati” oʻtkazilib, ularda hukumatning 4 nafar aʼzosi deputatlarning savollariga javob berdi.

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari, qoʻmitalar, umuman, deputatlar korpusi tomonidan parlament nazoratining barcha taʼsirchan shaklidan unumli foydalanilgani ijro hokimiyatining qonunlar va qonunosti hujjatlari talablariga qatʼiy amal qilishi ustidan taʼsirchan nazorat olib borishga yordam berdi. Bu esa, oʻz navbatida, mamlakatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining turli sohalarida uchrayotgan masalalarga yechim topishda parlamentning rolini yanada oshirishga xizmat qilmogda.

## Xalq ishonchini oqlash – eng muhim mezon

Mamlakatimiz Prezidenti **“Deputat – bu xalq xizmatchisi, barchaga oʻrnak boʻladigan, siyosiy bilimi va ongi yuksak, oʻz Vatani chindildan sevadigan insondir”** deb alohida taʼkidlagan edi.

Prezidentimizning ushbu eʼtirofi deputatlar korpusidan yanada katta masʼuliyat bilan ishlashni, xalqimiz va davlatimiz manfaatlarini taʼminlash borasida tashabbuskor boʻlishni taqozo etadi.

Deputatlarning aholi bilan doimiy muloqoti uchun Qonunchilik palatasi barcha tashkiliy chora-tadbirlarni koʻrmogda. Natijada saylovchilarning takliflari bevosita tinglanapti. Bu takliflar qonun loyihalarida aks etmogda. Muammolar tizimli hal boʻlmogda.

Yagona saylov okrugi boʻyicha siyosiy partiyalar roʻyxati asosida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning hududlardagi faoliyatini tashkil etish Konsepsiyasiga muvofiq, siyosiy partiyalar roʻyxati asosida (proporsional) saylangan deputatlar hududlarga birlashtirilib, ularning saylovchilar bilan uzviy muloqoti yoʻlga qoʻyildi.

Qonunchilik palatasining majoritar tizim asosida saylangan deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatini hamda saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishning ham huquqiy asoslari yaratilgan va bu boradagi amaliyot samarali yoʻlga qoʻyilgan.

Qabul qilingan hujjatlarda deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatini tubdan yaxshilash, muloqotlar muntazamligiga erishish, qonunlarni qabul qilishda jamoatchilik va saylovchilarning keng ishtirokini taʼminlash, islohotlar natijadorligi va aholini qiynayotgan masalalarni hal etishda siyosiy partiyalar fraksiyalarining ishtirokini, mahalliy Kengashlar bilan hamkorlikni kengaytirish, saylovchilar murojaatlari bilan ishlash borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan ishlarni yangicha shakllarda yoʻlga qoʻyish boʻyicha zarur vazifalar belgilab olindi.

Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyatlari davomida Qonunchilik palatasida oʻtkazilishi rejalashtirilgan parlament nazorati tadbirlarida koʻrib chiqiladigan masalalarni atroflicha oʻrganib, joylarda olib borilayotgan ishlarning haqiqiy holatini tahlil qilish borish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi. Bu parlament nazorati tadbirlarining samaradorligini taʼminlamogda.

Fraksiyalar tomonidan partiyaviy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, aniq yoʻnalishlarni belgilab olgan holda joylarda oʻrganishlar olib borildi. Xususan, qishloq xoʻjaligi va tadbirkorlikni rivojlantirish, fermerlik va klasterlar faoliyatini takomillashtirish, aholini arzon uy-joy bilan taʼminlash, nogironligi boʻlgan shaxslarni qoʻllab-quvvatlash, kambagʻallikni qisqartirish, sifatl ijtimoiy, kommunal va boshqa xizmatlar koʻrsatish, chiqindilarni boshqarish, atmosfera havosi tozaligini saqlash, energiya tejamon quyosh panelarini oʻrnatish bilan bogʻliq muammolar tahlil qilindi.

Qonunchilik palatasining Reglamentiga muvofiq, deputatlar oʻz saylovchilari bilan yaqindan muloqot qilish, muammolarini oʻrganish hamda ularga yechim topish maqsadida har oying oxirgi haftasida saylov okruglariga chiqishlari tashkil etildi.

Prezidentimizning 5-mart kuni boʻlib oʻtgan Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengash yigʻilishidagi dasturiy taqdimat belgilangan vazifalardan kelib chiqib, deputatlar bu muammoga qarshi kurashishda ham tobora faol boʻlmogda. Soha va tarmoqlarda maʼmuriy-byurokratik toʻsiqlarni hamda korrupsiyaviy omillarni aniqlash, jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini oʻrganish maqsadida Qonunchilik palatasi qoʻmitalari tomonidan respublikaning barcha hududida nazorat-tahlil tadbirlari oʻtkazildi.

Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, mahallalarda xavfsiz muhitni

Parlament faoliyatida ochiqlik va shaffoflik bosh mezoniga aylandi.

Milliy parlament qonun ijodkorligi faoliyatida **“qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom maʼnoda xalq boʻlishi shart”** degan ustuvor tamoyilni belgilab oldi. Buning yorqin misoli sifatida parlament aʼzolarining muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgan qonun loyihalarini koʻrib chiqishning barcha bosqichida ularni joylarda fuqarolar bilan keng muhokama qilish, aholining fikr-mulohazalarini bevosita joyiga chiqib oʻrganish va koʻrib chiqilayotgan qonun loyihalarini shu asosda takomillashtirish amaliyoti tizimli yoʻlga qoʻyildi.

Quyi palataning yalpi majlislari, “Hukumat soati” tadbirlarini Qonunchilik palatasining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali toʻgʻridan-toʻgʻri yoritib borilishi xalqimiz, keng jamoatchilik vakillarining palatada qonun loyihalarini muhokama etish va qabul qilish jarayoniga boʻlgan qiziqishini yanada oshirmogda.

Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytiga jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirilgan fuqarolarning vjdon erkinligini taʼminlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi, homiylik faoliyatini amalga oshirish tartibini takomillashtirish hamda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun loyihalari aholimizning fikr-mulohazalari hamda takliflari asosida maromiga yetkazildi.

Axborot maydonidagi zamonaviy tendensiyalarga mos ravishda deputatlar ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida oʻz faoliyati haqida saylovchilarni xabardor etish bilan birga, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid muhim masalalar boʻyicha munosabatlarni bildirib bormogdalar.

## Oʻzbekiston – global muloqotda faol va ishonchli hamkor

Parlament diplomatiyasi va parlamentlararo aloqalar tashqi siyosatimizning muhim muloqot vositalaridan biriga aylangan. Parlament diplomatiyasi geografiasini kengaymogda.

Oʻzbekistonning jahon miqyosidagi obroʻ-eʼtiborini yanada oshirish, davlatimiz rahbari tomonidan xalqaro miqyosda ilgari surilgan muhim tashabbus va gʻoyalar ijrosini taʼminlash hamda mamlakatimizdagi demokratik islohotlar haqida jahon hamjamiyatini yaqindan tanishtirishda parlamentlararo tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirmogdamiz.

Qonunchilik palatasining xalqaro hamkorlik aloqalari “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga mos ravishda sifat jihatdan yangi bosqichga koʻtarildi. Prezidentimizning nutqlari Qonunchilik palatasining xalqaro aloqalarini rivojlantirish uchun asos boʻlmogda.

Oʻzbekistonning dunyodagi eng nufuzli xalqaro parlament tashkilotlari boʻlgan Parlamentlararo Ittifoq (PI), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi (YEXHT PA), Mastaqil Davlatlar Hamdoʻstligi Parlamentlararo Assambleyasi (MDH PA) bilan koʻp qirrali hamkorlik aloqalari ichil davom ettirildi.

Keyingi paytlarda Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi obroʻ-eʼtibori oshib, ijobiy imji shakllanmogda. Natijada mamlakatimiz global kun tartibini shakllantirish hamda muhim masalalarni hal etishda oʻz oʻrniga ega boʻlib, koʻplab nufuzli xalqaro anjumanlarga ham mezbonlik qilib kelmogda. Xususan, Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yuqori saviyada tashkil etildi. Aytish kerakki, Parlamentlararo Ittifoqning assambleyasi ilk marta Markaziy Osiyo mintaqasida boʻlib oʻtdi.

Assambleya ishtirokchilari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur nufuzli tadbiridagi ishtiroki va tarixiy nutqi parlamentlar ishini rivojlantirish, oʻzaro hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ochanigini qayd etdilar.

Yangi tarkibda shakllangan Qonunchilik palatasida xorijiy davlatlar parlamentlari bilan Oliy Majlisning 56 ta parlamentlararo guruhi tashkil etildi.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga koʻtarish, parlamentlararo guruhlarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida Oliy Majlis bilan Qirgʻiz Respublikasi Jogork



Barcha islohotlarimiz negizida, eng avvalo, inson qadri, tadbirkorlarimizning manfaatlarini mujassam. Shu bois sud mustaqilligini taʼminlash boʻyicha qatʼiy siyosat olib boramiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,  
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

# SUDLAR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISH – DAVR TALABI

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taʼminlash huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishdagi muhim shartlardan biridir.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini taʼminlash, shuningdek, odil sudlovga erishish darajasini oshirish, sud-huquq tizimini isloh qilish Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilandi.

## Mustaqilligimizning 34 yilligi oldidan

Oʻtgan qisqa davrda sudlarning haqiqiy mustaqilligini taʼminlash, sud-huquq tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2017 – 2025-yillarda Oliy sud tomonidan 280 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqilib, sud tizimiga oid 65 dan ziyod qonun, Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular asosida sud tizimi tubdan takomillashtirildi.

Bu hujjatlar bilan “Inson qadri uchun” gʻoyasi asosida chinakam adolati sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatining samarali himoyasiga yoʻnaltirish, adolati sud qarorlari qabul qilinishiga erishilmoqda.

Shu orqali xalqimiz, jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga boʻlgan ishonchini mustahkamlash, sudlar faoliyatini toʻliq raqamlashtirish, sud qarorlarining qatʼiy ijrosini taʼminlash, “Yangi Oʻzbekistonda – yangi sud” tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohaga ilgʻor xalqaro mezonlarni joriy etish choralari koʻrilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan sudlar faoliyatini toʻliq raqamlashtirish, sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron maʼlumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib qatnashish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari qoʻyilgan edi.

2023 – 2026-yillarda sud tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli Strategiyasi va uni amalga oshirish boʻyicha Harakatlar dasturi bilan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taʼminlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar belgilandi.

Ana shu vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda sudlarni raqamlashtirish ishlari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilmoqda. Sudlarga ishlarni koʻrib chiqishda adolati, ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash uchun “Elektron odil sudlov” tizimi joriy etildi.

Sudyalar oʻrtasida ishlarni inson omiliga, avtomatik ravishda taqsimlash, sudlarga elektron murojaat va sud hujjatlarini tarafdorlarga elektron shaklda yuborish, sud majlislarini audioyozuvda qayd etib borish, sud qarorlarini internet tarmogʻida eʼlon qilish, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish kabi zamonaviy yondashuvlar natijasida odil sudlov samaradorligiga erishilmoqda.

Hozirda sudlarning axborot tizimi bilan vazirlik va idoralarning axborot tizimlari oʻrtasida maʼlumotlarni elektron shaklda olish tartibi amaliyotga joriy etilib, ular bilan maʼlumotlar almashinuvi toʻliq yoʻlga qoʻyildi.

Bugungi kunda Oliy sudning Interaktiv xizmatlar portali ishga tushirilib, u orqali fuqarolarga 49 tirdagi interfaol xizmatlar koʻrsatilmoqda. Unda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sudlarga elektron shaklda murojaat qilish, sud xarajatlarini elektron tarzda toʻlash, qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari bilan tanishish, ishlar holatini onlayn kuzatib borish, sud chaqiruv qogʻozini elektron olish, sud majlisi jadvali bilan onlayn tanishib borish, dunyoning istalgan nuqtasidan turib sud majlislarida mobil videokonferensaloqa tizimi orqali ishtirok etish kabi interfaol xizmatlar joriy qilindi.

Ayni paytda sudlar faoliyatiga fuqarolarga huquqiy yordam koʻrsatish, sud hujjatlari loyihalarini avtomatik tayyorlash va sud amaliyotini tahlil qilish yoʻnalishida sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etish boʻyicha choralar koʻrilmoqda.

## Insonparvarlik tamoyillari ustuvor

Sud ishlari yuritishda yangi institutlar kiritilganligi sudlar uchun muhim islohotlar sifatida oʻrin oldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyundagi “Tekzor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoniga asosan inson huquqlarini sud orqali himoyalash tizimini yanada takomillashtirish, jinoyat ishi yurituvida insonparvarlik tamoyillari asosida “Xabeas korpus” institutini yanada keng tatbiq etish maqsadida 2025-yil 1-yanvardan tergov sudyalari instituti milliy amaliyotga joriy qilindi.

Tergov sudyasi institutining amaliyotga joriy etilishi tekzor-qidiruv hamda tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga, sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga, jinoyat ishlarni koʻrishda odil sudlov sifatini yuksaltirishga zamin yaratmoqda.

Ayni paytda sud-tergov jarayonlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquq hamda erkinliklarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan holda samarali himoya qilinishini taʼminlash boʻyicha ham tegishli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, elektron (raqamli) dalil tushunchasini kiritish, elektron



boʻlgan 1 mlrd. soʻm davlat boji undirilmagan holda, keyinchalik ish natijasi boʻyicha pasaytirilgan stavkada 694,6 mln. soʻm undirilgan.

Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini himoya qilishda maʼmuriy sudlarning rolini kuchaytirish, ularni fuqaro va tadbirkorlarning haqiqiy himoyachisiga aylantirish hamda maʼmuriy sud ishlari yuritishni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida Maʼmuriy sud ish yurituvini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Konsepsiyada ilgʻor xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, yangi tahrirdagi Maʼmuriy sud ishlari yuritish toʻgʻrisidagi kodeks loyihasini ishlab chiqish, unda maʼmuriy sud ish yurituviga daʼvo institutini kiritib, daʼvo turlarini aniq belgilash, fuqarolar va tadbirkorlarning maʼmuriy hujjatga boʻlgan ishonchini himoya qilishda yetkazilgan zararni undirish tartibini belgilash, huquqiy buzilgan fuqaro – arizachining xohishiga koʻra eksterritorial sudlovga tegishlilik



“*Inson qadri uchun*” gʻoyasi asosida chinakam adolati sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatining samarali himoyasiga yoʻnaltirish, adolati sud qarorlari qabul qilinishiga erishilmoqda.

dalillarni aniqlash, toʻplash, taqdim qilish, tekshirish, baho berish, qayd etish, saqlash tartiblarini hamda bu jarayon ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilashga oid masalalar nazarda tutilgan.

Davlat organlari qarorlari va ular mansabdor shaxslarining gʻayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan fuqarolarning sudga shikoyat qilish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlarini amalga oshirishni taʼminlash maʼmuriy sudlov faoliyatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan maʼmuriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini fuqarolardan oldindan undirmasdan, ushbu bojni ishini koʻrib chiqish natijalariga koʻra aybdor tarafdan undirish tartibi belgilanib, davlat boji stavkasi BHMning 70 foizi miqdorida pasaytirildi. Bungacha davlat boji stavkasi BHMning 1 baravari boʻlgan.

Amalga oshirilgan islohot tufayli aholining huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud tartibida himoya qilinishini taʼminlashga toʻsiq sifatida koʻrilgan davlat boji murojaat vaqtida toʻlanishi bekor qilindi.

Bu esa, oʻz navbatida, aholining odil sudlovdan foydalanish hamda davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan maʼmuriy sudlarga murojaat qilish imkoniyati kengayishiga zamin yaratdi.

Islohot natijasida 2025-yilning birinchi yarmida maʼmuriy sudlarga fuqarolar tomonidan berilgan 5 621 ta arizadan oldindan toʻlanishi lozim

odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik taʼminotini yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmoni sud-huquq islohotlarining izchil davomi sifatida sudlar uchun tarixiy hujjat boʻlib kirdi.

Mazkur Farmon “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida oʻtishi belgilangan Mustaqilligimizning 34 yilligi bayrami arafasida xalqimiz uchun, Vatanimiz istiqboli uchun inson huquqlarini roʻyobga chiqarish borasida tufha boʻldi.

Farmon bilan sud-huquq tizimining samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar, xususan, sunʼiy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kengroq joriy etish nazarda tutilgan.

Ushbu texnologiyalar byurokratik toʻsiqlarni kamaytirish, ayniqsa, sunʼiy intellektga asoslangan “aqlli” texnotizimlar orqali arizalarni elektron tarzda qabul qilish, hujjatlarini avtomatlashtirilgan tarzda koʻrib chiqish va sud qarorlarining shaffofligi taʼminlanadi.

Sud ishlari yuritishda qogʻoz shaklidan voz kechish maqsadida “Raqqamli sud” konsepsiyasi asosida ishlarning yuritilishini toʻliq elektron shaklga oʻtkazish, joriy yil yakuniga qadar tajriba tariqasida Toshkent shahrida barcha raqqamli imkoniyatni oʻzida mujassam etgan zamonaviy sud zallari tashkil qilinadi. Tajriba natijalari asosida konsepsiya 2026-2027-yillarda bosqichma-bosqich respublikaning barcha sudlarida tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, fuqarolar va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish hamda sud ishlari koʻrishni soddalashtirish maqsadida murojaatlar sudga faqatgina elektron shaklda yuboriladi, bu bilan fuqarolar va tadbirkorlar sudga ariza yoki daʼvo arizasini qogʻoz shaklida sud devonxonasiga shaxsan berib topshirish tartiblariga barham beriladi.

Yana bir muhim qulaylik – ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga ataylab bormaydi va sud muhokamalarida masofadan turib qatnashadi, sud xarajatlari elektron shaklda hisoblanadi va toʻlanadi. Bu yangi tartib tizimda korruptsiya holatlarini keskin kamaytirishga yordam beradi.

Eng muhim yangilik, bu – tarafdorlar sudga ariza berishdan oldin sunʼiy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlarni shakllantirish yoʻllarini oʻrganib, sud ishi boshlanmasdan oldin uning taxminiy natijasini bilish imkoniyati yaratilmoqda.

Bundan tashqari, tarafdorlar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyati yaratiladi, sunʼiy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalari real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlanadi. Sud hujjatlari loyihalarini ham avtomatik shakllantiriladi.

## Istiqboldagi rejaralar ijrosi – muhim dastur

Farmon bilan sud sohasini raqqamlashtirishning istiqboldagi rejaralar belgilanib, 2025 – 2027-yillarga moʻljallangan sud sohasini raqqamlashtirish va odil sudlov jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dasturi tasdiqlandi. Unga koʻra:

– 2025-yil 1-dekabrden boshlab fuqarolar, advokatlar, yuristlar, sudyalalar uchun normativ-huquqiy hujjatlarini tahlil qilish platformasini ishga tushirish;

– 2025-yil yakuniga qadar sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash maxsus axborot dasturini yaratish;

– 2026-yil 1-yanvardan boshlab “my.sud.uz” interfaol xizmatlar portalida fuqarolarga huquqiy yordam koʻrsatish moduli joriy etiladi, bunda sunʼiy

*Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratish hamda sud ishlari koʻrishni soddalashtirish maqsadida, sudlar faoliyatiga sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqqamlashtirish ishlari izchil davom ettirish, sudlarning moddiy-texnik taʼminotini yaxshilash, shuningdek, “Raqqamli sud” konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish oldimizda turgan muhim vazifalardir.*

intellekt asosida ishlaydigan virtual maslahatchini yaratish, huquqiy murojaatlarga javob berish hamda sud maʼlumotlarini avtomatik yetkazish;

– 2026-yil 1-martdan boshlab fuqarolik, maʼmuriy, iqtisodiy va maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi ishlar boʻyicha dastlabki sud maʼlumotlarini fuqarolar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali olish;

– 2026-yil yakuniga qadar fuqarolarga odil sudlovga erishishda qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida 5 ta yangi interfaol xizmatni yoʻlga qoʻyish, shuningdek, sudning axborot tizimidagi “Shaxsiy kabinet” platformasining foydalanuvchilar uchun sunʼiy intellekt texnologiyalariga asoslangan va yanada qulay boʻlgan yangi versiyasini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda.

Iqtisodiy sudlar tizimini optimallashtirish maqsadida, 2026-yil 1-yanvardan boshlab tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari tugatiladi va Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar markazlari hamda Toshkent shahrida tumanlararo iqtisodiy sudlar tashkil etiladi.

Shuningdek, sudlar tomonidan maʼmuriy huquqbuzarlik uchun qoʻllanilgan jarimalarini onlayn kuzatish, ularning toʻlov muddatlari haqida ogohlantirish va toʻlovlarni elektron amalga oshirish imkonini beruvchi mobil dastur ishlab chiqiladi.

Sudda qatnashuvchi shaxslardan ortiqcha maʼlumotlar talab etilishiga chek qoʻyish maqsadida “Raqqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida mavjud maʼlumotlarni sudlarning axborot tizimlari bilan toʻliq integratsiya qilish choralari koʻriladi.

Farmonda sudlarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash hamda sudyalari va sud xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga alohida eʼtibor qaratilgan. Shunga koʻra, 2025 – 2030-yillarda sud binolarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash va yilqilash boʻyicha aniq chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Yangi sud binolarini qurishda va mavjudlarini mukammal taʼmirlashda “Raqqamli sud” konsepsiyasi asosida sud majlisi zallarini tashkil etish hamda aholi va sudyalari uchun qulay hamda zamonaviy shart-sharoitlar yaratishga alohida eʼtibor qaratish belgilandi.

Sudlar faoliyati ochiqligini taʼminlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sudlar faoliyati haqida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini xabardor qilish maqsadida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning oʻrinbosarlari tomonidan bfringlar oʻtkazish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi.

Qabul qilingan sud hujjati oʻqib eshitirilganidan soʻng uning mazmun-mohiyati sud protsessi ishtirokchilariga tushuntirilmoqda, sudlar chiqargan qarorlar Oliy sud veb-saytida muntazam ravishda yoritib borilmoqda.

Oliy sudda Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi (PR markaz) hamda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda matbuot xizmatlarining tashkil etilganligi aholi bilan ochiq muloqotni yoʻlga qoʻyish va sud hokimiyatining ochiqligini oshirish yoʻlida koʻrilgan muhim chora boʻldi.

Sud muhokamasi oshkoraligi, sudlar faoliyati toʻgʻrisida jamoatchilikka oʻz vaqtida va obyektiv axborot berish jamiyatda huquqiy xabardorlik darajasi kengayishiga imkon yaratadi va oʻz navbatida, sudlov faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini taʼminlash hamda sudga nisbatan jamiyat ishonchlini mustahkamlashning samarali vositasi hisoblanadi.

Sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro maydonda sud mustaqilligi, qonun ustuvorligi va odil sudlov samaradorligi boʻyicha xalqaro reytinglarda Oʻzbekistonning nufuzi oshishiga ham oʻz hissasini qoʻshmoqda.

Baxtiyor ISLOMOV,  
Oʻzbekiston Respublikasi  
Oliy sudi raisi.

## Bayram tuhfasi

## “Tashabbusli byudjet”: ezgu maqsadlar ijobati

Mustaqilligimizning 34 yilligi bayrami arafasida Oʻzbekiston tumanida yangidan qurilgan hamda mukammal taʼmirdan chiqarilgan qator ijtimoiy obyektlar ishga tushirilmoqda.



Ayni jarayonda “Tovush” mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan 29-umumtaʼlim maktabi uchun qurib bitkazilgan 120 oʻrinli qoʻshimcha oʻquv binosi ham foydalanishga topshirildi. Taʼkidlash oʻrinliki, ushbu taʼlim muassasasi 700 ga yaqin kelajagimiz vorislari taʼlim-tarbiya oladi. Shu tariqa bilim dargohidagi oʻquvchilar sigʻimi bilan bogʻliq koʻp yillik muammo bartaraf etildi.

“Shodlik” mahalla fuqarolar yigʻinidagi 75-oilaviy poliklinikaning qaytdan rekonstruksiya qilingan zamonaviy binosi ish boshlagani esa mahalla ahli uchun bayramga munosib tufha boʻldi. Tuman faollari va keng jamoatchilik ishtirokida oʻtkazilgan ochilish marosimida shifo maskanida yaratilgan zamonaviy sharoitlar barchani behad mamnun etdi. Birlamchi tibbiyot muassasasida 23 ming nafardan ziyod aholiga malakali xizmat koʻrsatish uchun barcha qulaylik muhayyo qilingan.

Eʼtiborlisi, “Tovush” va “Shodlik” MFYdagi ushbu binolar qurilishida mahalla ahli jonbozlik koʻrsatib, “Tashabbusli byudjet” loyihasida gʻolib boʻlgandi.

Botir MADIYOROV  
 (“Xalq soʻzi”).

## Mahalla idorasi endi yangi binoda

Istiqlolning 34 yillik bayrami arafasida Surxondaryo viloyatining Muzrabot tumanidagi “Mehnatobod”, “Olmazor”, “Fayzobod” va “Mohiyat” mahalla fuqarolar yigʻinlarining yangi binolari foydalanishga topshirildi.



– Yangi binoda faoliyatimizni davom ettirib, aholi muammolarini hal etish, jinoyatchilikni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishda yanada samarali ishlaymiz, – deydi “Olmazor” MFY raisi Ulugʻbek Mamatmoʻminov. – Endi bizda barcha sharoit bor, asosiy maqsadimiz odamlar hayotini yanada yaxshilashdir.

Tuman hokimligi koʻmagi bilan mahalliy byudjet mablagʻlari hisobidan barpo etilgan yangi binolarda “mahalla yettilligi” tarkibidagi har bir soha vakiliga alohida xonalar ajratilgan. Xonalar kompyuter jamlamasi va mebellar bilan taʼminlangan.

Farhod ESONOV  
 (“Xalq soʻzi”).

## Zamonaviy bogʻcha – kichkintoylar ixtiyorida

Yangiqoʻrgʻon tumanidagi Guliston mahallasida 44-davlat maktabgacha taʼlim tashkiloti uchun tiklangan hashamatli bino kichkintoylar va ularning ota-onalarga bayram sovgʻasi boʻldi. 3,5 mlrd. soʻm mablagʻ evaziga barpo etilgan inshootda bolajonlarning namunali taʼlim va tarbiya olishi uchun barcha sharoit muhayyo qilingan.



– Yaqin vaqtgacha moslashtirilgan binoda ishlab keldik, – deydi DMTT mudirasi Nilufar Amanbayeva. – Endi imkoniyatlarimiz kengaydi. Ikki qavatli va yetarlicha xonalarga ega bu goʻshada mashgʻulotlarni talablar darajasida tashkil etish orqali faoliyatimizni yuqori bosqichga koʻtaramiz. Kichkintoylarimiz soni ham ortib 160 nafarga yetdi. Endi yangi binoda istiqlolning 34 yilligi sanasi va katta guruhni maktabga kuzatish tantanalarini oʻtkazamiz.

Qudratilla NAJMIDDINOV (“Xalq soʻzi”).



# KONSTRUKTIV YONDASHUVGA ASOSLANGAN AMALIY SHERIKLIK

Keyingi yillar yurtimiz tashqi siyosati uchun samarali va faol kechdi. Ayniqsa, mintaqaviy ijobiy o'zgarishlarga erishishda tashqi siyosatdagi izchillik, har qanday sharoitda davlat manfaatini himoya qilish strategiyasi, ochiqlik tufayli xalqaro ahamiyatga ega amaliy natijalarga erishildi. Dunyo davlatlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar davom ettirildi.

## Nuqtai nazar

Shu ma'noda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga ko'ra, Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan yurtimizda bo'lishi ham O'zbekiston rahbarining xalqaro hamkorlikni kengaytirish, Vatanimizning jahon miqyosidagi mavqeiini mustahkamlashga qaratilgan samarali tashqi siyosatining yorqin tasdiqi bo'ldi. Konstruktiv, ochiq va ishonchli muloqot chog'ida iqtisodiyot va sarmoyadan tortib, fan, ta'lim va turizmga bo'lgan asosiy yo'nalishlarni qamrab olgan ikki tomonlama 15 ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tarixida ilk bor viza tartibini bekor qilish va mintazam aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuvga erishildi, bu esa ishbiarmonlik va madaniy aloqalar uchun yangi uqlarni ochadi.

Samarqand shahrida bo'lib o'tgan samarali muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn Sheriklik munosabatlarini mustahkamlash to'g'risida qo'shma bayonot qabul qildi. Mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlar tarixida ilk oliy darajadagi tashrif bo'lib, muloqotning yangi modeliga o'tish ramzi sanaladi. Geosiyosiy nuqtayi nazardan, tashrif O'zbekiston uchun Yaqin Sharqdagi va islom olamidagi mavqeiini mustahkamlash, yangi bozorlarga chiqish yo'lidagi qadam sifatida muhim ahamiyatga ega.

Podshoh Abdulla II ning tashrifigacha O'zbekiston – Iordaniya iqtisodiy aloqalari kamtarona edi. Biroq so'nggi yillar paradigmasi o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Har ikki tomon ham munosabatlarga tizimli xususiyat berishga intilmoqda, iqtisodiy va gumanitar imkoniyatlarning bir-birini to'ldirishiga tayanmoqda. Iordaniya yetakchisining tashrifi o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish tendensiyasining mantiqiy davomi bo'ldi. Tashrif doirasida imzolangan muhim hujjatlar to'plami mintazam muloqot, siyosiy-huquqiy pozitsiyalarni muvofiqlashtirish, investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish, yangi savdo kanallarini ochish, qishloq xo'jaligi va logistika

sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun institutsional asos bo'lmoqda. Mazkur huquqiy hujjatlar, shuningdek, O'zbekiston – Iordaniya munosabatlarini uzoq muddatli strategik rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida O'zbekiston Prezidentini Iordaniyaning "An-Nahda" ordeni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Bu Iordaniya tomonidan ko'p qirrali sheriklikni kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarga hurmat va e'tirofdan dalolat beradi. Eng asosiysi, davlatimiz rahbarining Iordaniya oliy mukofotiga loyiq ko'riliishi Prezidentimizning mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini qurish borasidagi islohotlari, mintaga va xalqaro maydonda ochiqlik, pragmatizm va konstruktivlik, teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslangan tashabbuslarining e'tirofi ham bo'ldi.

Iordaniya Podshohining O'zbekistonga tarixiy tashrifi va samarali muzokaralar natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar yangi sheriklik darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston va Iordaniya o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va ko'p qirrali amaliy hamkorlik munosabatlarini mustahkamlanib borayotgani bilan bir qatorda ikki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyalari o'xshash. Mamlakatlarimiz ikki tomonlama savdo ko'rsatkichlarini karrasiga ko'paytirish, qo'shma investitsiya loyihalari va savdo shartnomalarini amalga oshirishga tayyor. Kimyo va to'qimachilik sanoati, "aqlii" qishloq xo'jaligi, geologiya, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiyani kengaytirishga kelishib olingani bu intilishlarning yaqqol tasdiqi'dir. Hukumatlararo komissiya va ishbiarmonlar kengashini ishga tushirib, joriy yil yakunigacha ularning ilk yig'ilishlarini o'tkazish taklifi bildirilgan, yetakchi kompaniyalar va ishlab chiqaruvchilar ishtirokida O'zbekiston – Iordaniya biznes forumining o'tkazilishi biznes doiralari o'rtasida uzoq muddatli sheriklik aloqalarini o'rnatishga xizmat qiladi.

Madaniy, ta'lim va turizm sohalaridagi almashinuvarlar qo'shma madaniyat haftaliklari, konsertlar, ekspozitsiya va ko'rgazmalar o'tkazish orqali yanada faollashtiriladigan bo'ldi. O'zbekiston va Iordaniya xalqlari o'rtasidagi do'stlik aloqalari uzoq



tarixga ega bo'lib, bugungi kunda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumiy ma'naviy merosni birgalikda o'rganish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, ikki mamlakat islomshunoslik markazlari va institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadga muvofiq. Zero, O'zbekiston va Iordaniya islomiy sivilizatsiyaning muhim markazlari sifatida xalqaro maydonda o'ziga xos o'rin egallaydi.

Tarixan Toshkent islom ilm-fani, madaniyati va ta'limining yirik markazi bo'lib kelgan. Buning yaqqol dalili sifatida Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Sino kabi buyuk olimlarning nomlarini keltirish mumkin. Ammon esa, o'z navbatida, muqaddas joylarning himoyachisi va dinlararo muloqot markazi sifatida tanilgan, an'analar bilan zamonaviy texnologiyalar va iqtisodiy taraqqiyotning uyg'unligi ta'minlanishida muvaffaqiyatli faoliyat olib borilmoqda. Ikkala davlat ham o'z mintaqalarida barqarorlik va rivojlanish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda. Ularning siyosiy, madaniy va iqtisodiy hamkorligi mintaqaviy integratsiya hamda hamijhatlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tomonlarning bag'rikeng va ma'rifatlil islom g'oyalarini birgalikda ilgari surish zarurligi haqida yakdil fikrga kelganlari bejiz emas.

Davlatimiz rahbari Podshoh Abdulla II tashabbusi bilan bundan o'n yil oldin boshlangan "Aqaba jarayoni" tashabbusini yuqori baholab, ushbu muhim tashabbusning navbatdagi yig'ilishlaridan birini Samarqand shahrida o'tkazishni taklif etdi. "Aqaba jarayoni" tashabbusi – bu terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan xalqaro forum bo'lib, maqsad dunyo bo'ylab terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda hamkorlikni mustahkamlash, fikr almashish, tajriba o'rtoqlashtirish va terrorizmga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqishni ko'zlaydi. Asosiy e'tibor Afrika, Osiyo va Yaqin Sharqdagi terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan. O'tkazilish joyi sifatida, asosan, Iordaniyaning Aqaba shahri tanlangani bois tashabbus "Aqaba jarayoni" deb ataladi. Muhimi, mazkur

tashabbus xalqaro hamjamiyatning terrorizmga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini birlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Yaqin Sharqning ko'plab davlatlari, shu jumladan, Iordaniya O'zbekiston rahbariyatining Falastin masalasidagi konstruktiv pozitsiyasini, mamlakatning insonparvarlik tashabbuslarini, mintaqada tinchlik o'rnatishga bo'lgan samimiy istagini yuksak qadrlamoqda. An'anaga ko'ra, Yaqin Sharq diplomatiasida muhim rol o'ynaydigan Iordaniya O'zbekistonni mintaqaviy mojarolarni adolatli hal etishga ko'maklashishda ishonchli hamkor, deb biladi.

O'zbekiston va Iordaniya o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik jadal sur'atlarda rivojlanayotir. Iordaniya farmatsevtika va kimyo sanoati, to'qimachilik, shuningdek, o'g'itlar va qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha kuchli sanoat salohiyatiga ega. Mamlakat fosfat va kaliy zaxiralari bilan mashhur bo'lib, ularning eksporti iqtisodiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ham qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohalarida hamkorlikni kengaytirish, fitosanitariya va karantin yo'nalishlarida xorijiy davlatlar bilan tajriba almashish, chorvachilik, veterinariya va raqamlashtirish borasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha samarali ishlar qilinmoqda.

Xususan, O'zbekiston qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov Iordaniya qishloq xo'jaligi vaziri Sayeb Abdel Haleem Hresat bilan uchrashuvda mashhur "Avasi" qo'y zotini mamlakatimizga olib kelish va uni mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish masalasi ko'rib chiqildi. Shuningdek, yurtimizda turli chorva mollariini yetishtirish hamda ularni Iordaniyaga yetkazib berish istiqbollari belgilandi. Bundan tashqari, O'zbekistondan gilos, mayiz va boshqa mahsulotlarni Iordaniyaga eksport qilish, u yerdan esa xurmo, zaytun va zaytun moyini mamlakatimizga olib kirish imkoniyatlari belgilab olindi. Qurg'oqchilikka chidamli navlarni mahalliyashtirish ham

Shundan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, Iordaniya Podshohining tashrifi ikki davlat o'rtasidagi siyosiy muloqotni yanada faollashtirish, o'zaro ishonchni mustahkamlash va xalqaro maydondagi hamkorlikni kengaytirishga, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, savdo aylanmasini ko'paytirish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish, madaniy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim, fan, turizm va boshqa sohalardagi almashinuvi kengaytirishga yordam beradi. Ikkala davlatning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashdagi hamkorligini mustahkamlashga, sheriklikning yangi yo'nalishlarini belgilashga, O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlashga, iqtisodiy va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga imkon beradi.

Muhiddin PO'LATOV,  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori.

## Ehtirom

## DORILAMON KUNLAR SHUKRONASI

Xorazm viloyatining Bog'ot tumanida 108 yoshni qarshilagan tabarruk onaxon Naziba momo Galimova umrguzaronlik qiladi. Yoshlik yillari urushning og'ir sinovlari, ocharchilik hamda qatag'on davriga to'g'ri kelgan onaxon yurtimizdagi to'kin-sochinlik qadriga yetish haqida to'liqlanib so'zlaydi, bugungi tinch va osuda hayotimizga shukrona aytadi. Ushbu xonadondan tabarruk yoshdagi momoning duosini olish uchun yo'qlab keluvchilarning qadami uzilmaydi.

Vatanimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami onaxon uchun qo'shaloq shodiyonaga aylandi. Prezidentimizning Farmoniga muvofiq, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash yo'lidagi ko'p yillik fidokorona mehnati, yosh avlodni vatanparvarlik va istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi munosib xizmatlari uchun Naziba Galimova "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Bayram arafasida viloyat hokimi Jo'rabek Rahimov onaxonning xonadonida bo'lib, unga davlat mukofotini topshirdi.

Prezidentimizning bunday e'tiboridan boshim ko'kka yetdi, – deydi Naziba momo. – Bugun yurtimizdagi ulkan o'zgarishlarni, biz keksalar uchun yaratilayotgan sharoitlarni ko'rib shu kunlarga yetkazganiga shukrona aytaman. El-yurt ardog'ida yashayotganimdan, shunday saodatlil kunlarni ko'rish nasib etganidan baxtiyorman. Ilohim yurtimizga ko'z tegmasin!

Odilbek ODAMBOYEV  
("Xalq so'zi").

\*\*\*

Tabarruk yoshida beqiyos xizmatlari e'tirof etilib, davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar orasida Narpay tumani "Tepa qo'rg'on" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi 103 yoshli Xaticha momo Gadanova ham bor. Bu onaxon ko'p yillar davomida qishloq xo'jaligi sohasida samarali ishlagan. Umri mobaynida farzandlariga, yoshlarga halol mehnat qilishni uqtirib kelgan va o'rgatgan.

Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev onaxon yashayotgan xonadonda bo'lib, Xaticha Gadanovani istiqloq bayrami bilan qutladi va "Shuhrat" medalini uning ko'ksiga taqib qo'ydi.

Xaticha momo keksa avlod vakillariga ko'rsatilayotgan e'tibor hamda g'amxo'rlik uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, elimiz dasturxonlari to'kin, farzandlarimiz baxtili bo'lishini tiladi.

Abdulaziz YO'LDOSEV  
("Xalq so'zi").

Reklama

## «ASIA TRANS GAS» MCHJ QK:

# O'ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING 34 YILIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI BAYRAM

Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan. Ikki davlat turli sohalarida – energetika va transportdan tortib, sanoat va yuqori texnologiyalargacha bo'lgan yirik qo'shma loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Ko'plab loyihalar orasida "Asia Trans Gas" MCHJ qo'shma korxonasi faoliyati alohida o'rin tutadi. U ikki mamlakatning boy tajribasi va ilg'or texnologiyalarini o'zida mujassam etgan muvaffaqiyatli hamkorlikning yorqin namunasidir. "Asia Trans Gas" MCHJ QK o'z faoliyatini tufayli energetika infratuzilmasini mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi turmush sifatini yaxshilash, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamijhatlik va ishonchni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda.

26 avgust kuni "Asia Trans Gas" MCHJ

QK bosh ofisida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligigabag'ishlangan yorqin va unutilmas tantana bo'lib o'tdi. Bu kun nafaqat bayram tadbiriga, balki milliy an'analarga hurmat, jamoa ahilligi va xalqlar do'stligining haqiqiy ramziga aylandi.

Mehmonlarni tongdanoq kar-nayb suraylarning ulug'vor sadolari kutib oldi. Ularning teran va tantanali sadolari ko'tarinki ruh muhtini yaratib, barchani Vatan uchun shodlik va iftixorni baham ko'rishga chorlagandek bo'ldi.



"Asia Trans Gas" MCHJ QK bosh direktori Lyu Chijuan o'zining tantanali nutqidagi kildadi:

"Ushbu tantanali vaquvonchilik kunda korxonamiz nomidan eng samimiy bayram tabriklarini bildirishga ijozat bergaysiz! O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi kuni bilan barchangizni chin qalbidan muborakbod etaman! O'ttiz to'rt yillik mustaqil taraqqiyot davomida O'zbekiston davlat qurilishi, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot yo'lida ajoyib muvaffaqiyatlarga erishdi. Bunday qulay sharoitlarda biz barchamiz birgalikda "Asia Trans Gas" izchil rivojlanib, yanada mustahkamlanib borishini ta'minlash uchun harakat qilmoqdamiz. Bugungi yutuqlar nafaqat butun jamoaning mashaqqatli mehnati samarasi, balki Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi mustahkam do'stlikning yorqin dalilidir. Ishonch bilan aytish mumkinki, qo'shma korxonamiz va biz amalga o'shirayotgan loyihalar Xitoy – O'zbekiston hamkorligining namunasini bo'lib, madaniyatlararo do'stona munosabatlarining o'ziga xos jozibasini yaqqol namoyon etadi".

Bayram dasturidan xalq musiqasi,



an'anaviy raqslar, milliy hunarmandchilik namunalari o'rin oldi. Korxonaning turli millat vakillaridan iborat jamoasi qiziqarli konsert chiqishlarini tayyorladi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, doira ustasi Abbos Qosimovning chiqishlari bayramning haqiqiy bezagiga aylandi. Uning dunyoga mashhur ijrosi o'zining teranligi va go'zalligi bilan tomoshabinlarni maftun etdi, doira sadolari esa o'zgacha bayramona kayfiyat bag'ishladi.

Tandirda somsa tayyorlash bo'yicha o'tkazilgan mahorat darsi o'zgacha zavq uyg'otdi. Ishitirokchilar nafaqat ushbu taomni tayyorlash jarayonini ko'rish, balki o'zlarini somsapaz sifatida ham sinab ko'rish imkoniga ega bo'ldi. "O'zbek oshxonasi – xalqning mehmondo'stligi, saxo-

vatpeshaligini aks ettiruvchi boyligimizdir. Bugun biz uni hamkasblarimiz va do'stlarimiz bilan baham ko'rmqdamiz", deb ta'kidladi mahorat darsi ishtirokchilaridan biri Nargiza Abutalipova.

Usta-hunarmand mahsulotlari ko'rgazmasi mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ustalar bayramga qo'lda bezatilgan sopol idishlar – kosa va choynaklar, ikat va adrasdan milliy liboslar, yog'ochdan yasalgan lavslar, milliy naqshli so'zana, qo'lda yasalgan turli qo'g'irchoqlar, bosh kiyimlar olib keldilar. Ustalarining bu mahsulotlari O'zbekistonning chuqur madaniyildizlari va boy merosining yorqin dalili bo'ldi. Ko'rgazmadagi har bir buyum o'ziga xos bo'lib, usta-hunarmandlar bilan uchrashuv esa ularning san'ati bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

An'anaga ko'ra, bayramning kulminatsion nuqtasi mehmonlarga xushta'm bayram palov tortig'i bo'ldi. "Palov nafaqat taom, balki turli avlod va millat vakillari bir dasturxon atrofida to'plangan birdamlik va do'stlik timsolidir", deb o'z taassurotlari bilan ATG xodimi Abdubakir Musaboyev o'rtoqlashdi.

Mustaqillik kuni o'zbek xalqi uchun muqaddas bo'lib, uning erk, rivojlantirish va taraqqiyotga intilishi ifodasidir. Qo'shma korxonabosh direktori Lyu Chijuan O'zbekiston bilan Xitoyning en-

ergetika sohasidagi hamkorligi strategik sheriklik va o'zaro ishonchning yorqin namunasini ekanini alohida ta'kidladi.

Bugungi kunda "Asia Trans Gas" MCHJ QK kabi korxonalar yirik loyihalarni amalga oshirish bilan birga, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari



yaratish, O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlashga ham salmoqli hissa qo'shmoqda.

Bayram yuqori kayfiyatda yakunlanib, mehmonlarda yorqin taassurotlar qoldirdi. Mustaqillik bayrami nafaqat umumxalq bayrami, balki insonlar qalбини birlashtiruvchi, yangi marralar sari ilhomlantiradigan, yorug' kelajakka ishonchni mustahkamlaydigan ulug' tuyg'u ekanligini yanabir bor isbotladi.

«Asia Trans Gas» MCHJ QK.



# O'TTIZ YETTINGCHI YIL TURNALARI

Har yili 31 avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanishi, ajdodlarimiz xotirlanishi, Qur'on tilovat etilib, ular haqiga duo qilinishida chuqur ma'no bor. Mustabid tuzum davrida yurtimizda ming-minglab odamlar qatag'onga uchragan. Oilalari xonavayron bo'lib, bolalari yetim qolgan.

Mustaqillik davrida 1920 – 1930 yillarda NKVD jazo organining qatlgohi bo'lgan – Toshkent shahridan Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv bo'yida qarovsiz, fayzsiz bo'lib yotgan joylar "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi, deb atalgan muqaddas bir ziyoratgohga aylandi. Bu maskan o'zining alohida, mudhish voqealardan darak beruvchi tarixiga ega. 1937-1938 yillardagi "katta qirg'in"da aynan shu joylarda 6 mingdan ziyod millatimiz oydinlari "xalq dushmani" tamg'asi bilan o'tib tashlangan.

Aksilinqilobiy faoliyatga qarshi targ'ibotda ayblangan tinch aholini otish bo'yicha maxfiy operatsiyalar Toshkentdagi uchta maxsus obyekt hududida amalga oshirilgan. Birinchisi Yunusobod tumanida, hozirgi "Toshkent" teleminorasiga yaqin joyda bo'lgan. Ikkinchi obyekt – hozirgi Abraziv zavodi o'rnida. Uchinchi maxsus obyekt xalq ichida "Alvosti ko'priki" deb atalgan ko'priki atrofidagi pastqam joylarda bo'lgan. Shu yerda keyinchalik "Shahidlar xotirasi" memorial majmuasi qurilgan.

1950-yillar boshlarida Toshkentning Yunusobod tumani hududida qurilish ishlari boshlangan. O'shanda o'tib tashlangan kishilarning jasadlari topilgan. Ular atrofidagi mahallalarning bir necha faollari tomonidan yuk mashinasiga o'tilib, tun qorong'isida yashirincha yaqindagi Oqilota qabristoniga dafn qilingan. Qabriston qo'rkovi Ahmad Yusupov oilasi xavfsizligini o'ylab hayotligida qo'rqanidan bu voqeani hech kimga aytib bermagan. Aynan shuning uchun jasadlar ko'milgan aniq joy noma'lumligicha qolgan. Qabristonga kiraverishda ular uchun ramziy qabr toshi o'rnatilgan. O'zbekistondagi "katta qirg'in"ning eng dahshatli sanasi bo'lgan 4 oktyabrda muzeyimiz jamoasi qabristondagi mazkur ramziy qabr ziyoratida bo'lib, xotira tadbirini o'tkazish an'angaga aylangan.

1938 yilning mash'um kuzida millatimizning Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriydek eng sara ziyolilari, G'ozzi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Otajon Hoshimov, Majid Qodirov, Ziylo Saidov kabi adabiyotshunos olimlar, birinchi o'zbek kinorejissyori va fotografi Xudoybergan Devonov, Sattor Jabbor, Sulton Matqul, Bahovuddin Amin kabi Germaniya oliy maktablarini bitirib Vatanga Yevropaning ilm-fan, texnika yutuqlarini joriy etishga bel bog'lagan yigitlar, Turg'unpo'lot Qirg'izov, Mirkomil Mirsharapov kabi o'zbek milliy armiyasining ilk zobitlari, umuman, fan, adabiyot, san'at darg'alari, hukumat va jamoat arboblari bo'lgan minglab qahramonlarimiz mahv etilgan. Ular 1938 yilning 4 oktyabrda shoshilinch qat' qilingan. Voqeaning eng dahshatli jihati, bu jabrdiydalariga hukm 5 oktyabr sanasi bilan chiqarilgan.

Istiqlol tufayli qatag'on qurbonlarini nomma-nom aniqlash, Vatani, el-yurt, avlodlari oldida ularni oqlash va xotirasini abadiylashtirish

maqsadida Respublika komissiyasi tuzildi. "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi tashkil etildi. Ko'plab nodir hujjatlar, tarixiy manbalar to'planib, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi yaratildi. Dastlab komissiya a'zolariga arxivlar ustida ishlash oson bo'lmadi. Bir kun ishlab, ikkinchi kun tergov matnlarida ular a'zosi bo'lmagan aksilinqilobiy tashkilotlarga a'zo bo'lgansan, deb siquvga olganlari, xunrezlik bilan qo'l qo'ydirganda ko'z yoshlarining dog'lari qolib ketgan hujjatlar ustida ko'ngli bo'shab, ishlolmasdan uzr so'rab ketgan ziyolilar ham ko'p. Muzey va "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi ilmiy xodimlari uchungina respublika arxivlarida, xususan, DXX arxivida izlanishlar olib borish vakolati saqlanib qoldi. Davlat muzeyi Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazilgach, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi 13 ta



oliy ta'lim muassasasi tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari tashkil etildi. Davlat rahbarining 2024 yil 19 iyuldagi "Siyois qatag'on qurboni bo'lgan yurtodshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qaroriga binoan hududlarda tegishli mutaxassislardan iborat ilmiy-ishchi guruhlar tuzildi. Ularga maxsus arxivlarda ishlash uchun ruxsatnomalar berildi. Respublika bo'yicha yana 11230 nafar qatag'on qurbonining nomi aniqlandi. Bu insonlar orasida surgun qilingan o'zbek ziyolilarining ayollari ham bo'lib, ular hech qanday dalil-isbatsiz qamoqqa olinib, Qarag'andadagi (Shimoliy Qozog'iston) "ALJIR" (Акмолинский лагерь жён изменников родины) lageriga yuborilgan. Masalan, qatag'on qurboni G'ani Ishoqovning rafiqasi Maqsuda Ishoqova, iqtisodchi Nasritdin Sherahmedovning ayoli Mahfuza Sherahmedova, O'zbekistonning Moskvadagi vakolatlari vakili Muhiddin Tursunxo'jayevning turmush

**“ Muzey mutasaddilari tomonidan Bosh prokuratura va Oliy sudga yozilgan arizalar natijasida Oliy sud tomonidan 2021-yildan buyon 1220 nafar qatag'on qurbonining nomi oqlandi. Ular orasida o'zbeklardan tashqari tojik, qirg'iz, tatar, fors, turkman, qoraqalpoq, qozoq, rus va boshqa millat vakillari bor. ”**

yuborilgan 70 nafar talaba orasida ikki nafar o'zbek qizi: Maryam Sultonmurodova va Xayriniso Majidxonova ham ilm olib, Vataniida o'zgarishlar qilish niyatida Yevropaga o'qishga yo'l oladi. Xayriniso Toshkentda ziyolilar ko'chasida yashagan. Uning otasi ziyoli bo'lgani sabab Munavvar qori Abdurashidxonov ochgan jadid maktabida savodi chiqadi. U Germaniyada dastlab texnikumda, keyin universitetda tibbiyot va bolalar pedagogikasi yo'nalishlarida tahsil oladi. Uning otasi: "Ezilgan millatlar, qorong'ilikda qolgan yurtini kelgusida chin bilim bilan yoritmoq uchun bu yil xorijga ketgan talabalar orasida qizim Xayriniso ham bor edi. Bilim uchun uzoq ellarga birinchi o'zbek qizini yuborish sharaflari, shukrlari bo'lsunkim,

menga nasib bo'lmish", deb xursand bo'lgan edi. Endigina Yevropada o'qib qaytgan Xayriniso Majidxonova 1937-yil 13-sentyabrda NKVD tomonidan qamoqqa olinadi. Germaniyadan olib kelgan hamma materiallari yoqib yuboriladi. Yondirilgan kitoblari orasida tibbiyotga oid qo'lyozmalar bilan birga Gyote, Shillerning nemis tilidagi kitoblari ham bo'lgan. Tergov bir yildan ortiq davom etib, 1938-yil 9-oktyabrda Xayriniso Majidxonova oliy jazo – otuvga hukm qilingan.

X o r a z m l i k Maryam Sultonmurodova oliy ma'lumotli o'qituvchi bo'lgan. Ma'rifatparvar Mulla Jumaniyoz oilasida dunyoga kelgan. NKVD xodimlari tomonidan 1937-yil 15-sentyabrda hibsga olingan. O'zi buni shunday izohlagan: "1937-yilgi tergovdagi ko'rsatmalarni tasdiqlamayman. Shaxsan o'zim bunday ko'rsatma bermaganman. Meni tergov qilgan chog'larida qaydnomaga imzo chekishga majbur qildilar. Lekin unda nima yozilganligini o'qimaganman, o'qishga berishmagan ham. Bu hujjatlarining mazmuni bilan tanishishga ixtiyor bildirganimda, "bolangni olib qo'yamiz", deb qo'rqitishdi..."

1939-yilda Maryam Sultonmurodovaga o'n yillik qamoq jazosi tayinlanadi. Jazoni avvaliga Toshkent, keyin Qozon va Moskva qayinidagi Suzdal turmalarida o'tagan. Undan so'ng Uzoq Sharqqa yuborilib, qurilishda ishlatilgan.

Maryam Sultonmurodova qamoqni tugatib chiqqach ham 1949-yilda yana qamoqqa olinadi. Bu safar u Berlindaligi vaqtida u yerdagi qandaydir guruhlar bilan aloqada bo'lgani, dugonasi Xayriniso Majidxonova bilan Parijga borganida Mustafo Cho'qayev bilan uchrashgani, Toshkentda ishlaganida matbuotda millatchilik g'oyalari tashvish qilgani, germaniyalik professor England bilan josuslik maqsadida aloqa o'rnatgani kabi "ayblar" yuzasidan so'roq qilinadi.

Maryam Sultonmurodova shubha va gumonlardan tamomila qutula olmagan haqida shikoyat yozgan: "1937-yilda NKVD tomonidan hibsga olindim. Vatani xoini sifatida aybdor deb topildim. 10 yilgacha ozodlikdan mahrum etildim. 5 yil muddatga huquqlardan mahrum qilindim. 1947-yilda jazo muddatini o'tab, uyga qaytdim. 1949-yilda yana shu ish bo'yicha hibsga olindim. Krasnoyarsk o'lkasiga surgun qilindim. Men vijdonimda aksilinqilobiy harakatga ega bo'lmaganim uchun o'zimni yaratilgan sharoitlarning qurboni deb bilaman..."

Nihoyat 1957-yil 2-avgustda bo'lib o'tgan sudda uning harakatida jinoyat yo'liqli isbotlanadi. Maryam bu ajrim bilan ilmiy o'qituvchi bo'lgan 1957-yil 14-oktyabrda tanishtirildi.

O'sha davrdagi qatag'onchilik siyosatidan xalqimizning biror qatlamini omon qolmagan. Qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va nomini

oqlash maqsadida turli vazirlik, idora hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqdamiz. O'tgan yilda Bosh prokuratura bilan imzolangan memorandum doirasida qatag'onga uchragan prokuratura xodimlariga bag'ishlangan "Tarixiy xotira beqiyos" nomli kitobning 1 va 2-jildlari, "Muhammadjon Mo'minov – o'zbek zamonaviy huquqshunosligining asoschisi" nomli kitob tayyorlandi va nashr etildi. Ichki ishlar vazirligi bilan birga qatag'onga uchragan soha xodimlariga bag'ishlangan "Tarix: xotira, xulosa va saboqlar" kitobi, Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda "Harbiy jaddidlar xotirasi barhayot" kitobi, shuningdek, respublika Oliy sudi taklifiga binoan "O'zbekiston Oliy sudi" nomli kitoblari nashr etildi. Shu orqali mazkur idoralarda ham vijdonli, vatanparvar, haqiqat yo'lini tutgan, halol va jasur xodimlar bo'lgani, oxir-oqibat ular ham qatag'on qurboniga aylanganliklari jamoatchilikka isbotlab berildi.

Muzey mutasaddilari tomonidan Bosh prokuratura va Oliy sudga yozilgan arizalar natijasida Oliy sud tomonidan 2021-yildan buyon 1220 nafar qatag'on qurbonining nomi oqlandi. Ular orasida o'zbeklardan tashqari tojik, qirg'iz, tatar, fors, turkman, qoraqalpoq, qozoq, rus va boshqa millat vakillari bor. Oqlanganlarning aksariyati jaddidchilik harakati namoyandalari ekani bejiz emas. O'sha davrda aynan ma'rifatparvar, taraqqiyparvar, ziyoli insonlar qatag'on qilingan. Ularning avlodlari topilishida davlat muzeyi hamda hududiy Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari tomonidan o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot-tashviqot tadbirlari, ilmiy anjumanlar, xotira kechalari, ilmiy jamoatchilgimiz tomonidan e'lon qilinayotgan maqolalar, nashr etilayotgan kitoblari alohida ahamiyatga ega.

Tarixiy xotirasi bo'lmagan, tarixni unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yetmaydigan millatning istiqbolli yo'qi. Muzey hamda hududiy muzeylarning asosiy vazifasi tashrifchilarni tarix bilan tanishtirish, qatag'on qurbonlarini yod olish, yoshlarni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalari sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barobarida xalqimizning asiy orzusi ro'yobga chiqib, inson xotirasi va qadrlarining shunday yuksak darajada uqlanayotgani farzandlarimiz uchun tengsiz saboqdor.

Albatta, qirg'in-qatag'onlar, aldov-bo'htonlar, qamoq va zulmlarga giriftor bo'lgan 1937-yil turnalari o'zining katta talafoti, qurbonlari bilan yodimizda qoldi. O'z yurtidan erta ketgan turnalar qaytmaydi, ammo ularning jasorati qalbimizda abadiy yashaydi. Ularga o'rnatilgan ramziy yodgorliklar tinch, osuda hayot qadriga yetishga, Vatanni sevishga, tinchligini asrashga chorlab turadi.

**Baxtiyor HASANOV,**  
Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori.



xabarlar

## Yengil atletika: JAHON ChEMPIONATIGA KIMLAR BORADI?

13 – 21-sentyabr kunlari Yaponiya poytaxti Tokio shahrida yengil atletika bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tadi.

Yirik musobaqada ishtirok etish uchun turli saralash bosqichlari yakunlanib, unda qatnashadigan sportchilar nomi ma'lum bo'ldi. Unga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasining 5 nafar a'zosi o'z yo'nalishida kuchlilar qatoridan joy oldi hamda bo'lajak dunyo birinchiligida mamlakatimiz sharaflini himoya qiladi. Xususan, marafon dasturida Sh. Davlatov, balandlikka sakrashda S. Sa'dullayeva, uzunlikka sakrash bahslarida A. Anvarov, uch hatlab sakrashda Sh. Davronova va yadro uloqtirishda M. Nasriddinova kabi tajribali yengil atletikachilarning sovrinli o'rnlari uchun kurash olib boradi.



## Dzyudo: O'SMIRLARIMIZDA HOZIRCHA 3 TA OLTIN MEDAL

Bolgariyaning Sofiya shahrida dzyudo bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionati davom etmoqda.



Unda qatnashayotgan O'zbekiston terma jamoasi musobaqaning ilk kunidayoq 3 ta oltin medalni qo'lga kiritdi. Ta'kidlash joizki, Dilafroz Boltaboyeva, Diyora Keldiyorova (2015-yil) va Barchinoy Qodirova (2022-yil)dan keyin mazkur yosh toifasidagi dunyo birinchiligida g'alaba qozongan o'zbekistonlik uchinchi dzyudochi qizga aylandi.

50 kilogrammgacha vaznda tatamiga chiqqan Xushnud Sultonov finalda braziliyalik Artur Meloni taslim etdi va delegatsiyamiz hisobiga ikkinchi oltin medalni keltirdi. Xushnubek Burhonov (-55 kg.) esa musobaqada birinchi o'rin uchun kechgan bellashuvda 19 soniyadayoq italiyalik Matteo Gualandini ippon bahosi evaziga mag'lub qildi.

Uchinchi oltin medalni qo'lga kiritgan dzyudochi Xushnud Sultonov finalda braziliyalik Artur Meloni taslim etdi va delegatsiyamiz hisobiga ikkinchi oltin medalni keltirdi.

Xushnubek Burhonov (-55 kg.) esa musobaqada birinchi o'rin uchun kechgan bellashuvda 19 soniyadayoq italiyalik Matteo Gualandini ippon bahosi evaziga mag'lub qildi.



"A" guruhidan o'rin olgan bahslar Toshkentdagi "Jar" va yaqinda qurilib foydalanishga topshirilgan "Olimpiya" stadionida bo'lib o'tadi. Temur Kapadze murabbiyligidagi futbolchilarning 30-avgust kuni O'mon, 2-sentyabrda Turkmaniston hamda 5-sentyabr sanasida Qirg'iz Respublikasi vakillariga qarshi yashil maydonda saf tortadi.

Ikki guruh g'olibi o'rtasidagi final uchrashuvi 8-sentyabrda belgilangan.

**Sunnatilla ISLOMOV**  
("Xalq so'zi") tayyorladi.

Mustaqillik bayrami munosabati bilan madaniy meros obyektlariga kirish uchun chegirmalar joriy etildi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Qonunchilik palatasi Kengashi**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Senati Kengashi**

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:**  
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahriyrga kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chas, 55-uy.**  
Navbachi muharrir F. Bozorov.  
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

**"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:**  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 23.05 Topshirildi — 01.00

1 2 3 4 5 6